

yuridik ensiklopediya



BOLALAR UCHUN

UO'K: 34:030-053.2

KBK: 67ya2

B 43

Bolalar uchun yuridik ensiklopediya [Matn] : ensiklopediya / Sh.Bahronov, S.Quronov. – T.: "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2021-y.– 160 b.

ISBN 978-9943-5622-7-1

UO'K: 34:030-053.2

KBK: 67ya2

B 43

Tuzuvchilar:

Sherzod Bahronov, Sa'dullo Quronov

Ushbu ensiklopediya bolalarga mo'ljalangan bo'lib, ularga o'z huquqlari, erkinliklari va burchlari borasida ma'lumot berish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, kundalik hayotimizga doir yuridik tushunchalar, holatlar, hujjatlar bolalar uchun tushunarli bo'lgan sodda va ravon tilda keltirilgan.

ISBN 978-9943-5622-7-1

© Bahronov SH., Quronov S., 2021-y.

© "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2021-y.

SO'ZBOSHI

Har bir bola o'z huquqini bilishi lozim. Chunki hayotimiz, kundalik yumushlarimiz turli huquqiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq. Hatto bolalar ham deyarli har kuni atrofdagi odamlar bilan huquqiy munosabatga kirishadi.

Bolalar – yurtning kelajagi. Shu sababli davlatimiz tomonidan bolalarning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi uchun barcha sharoitlar yaratib kelinmoqda. Shu bilan birga jamiyat taraqqiyotida bolalarning huquqiy bilimlarini boyitish ham muhim omildir.

Qonun – odamlarning o'zaro ahil, tinch-totuv va baxtli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan eng muhim hujjat. Agar qonun bo'lmasa, dunyo allaqachon alg'ov-dalg'ov bo'lib ketgan, odamlar hali ham ibtidoiy sharoitda, urug'chilik jamoalarida yashayotgan bo'lardi, balki. Zero, qonunlar jamiyatning rivojlanishini ta'minlaydi. Qayerda, qaysi jamiyatda qonun ustuvor bo'lsa, odamlar o'z huquq va burchlarini to'g'ri anglasa, shu yurt taraqqiy topadi. Odamlar osoyishtalikda, to'kin-sochinlikda umr kechiradi.

Aziz bolalar, qo'lingizdagi bu kitob sizni huquq bilan tanishtiradi, qonunlar olamiga sayr qildiradi. Kunora televizordan ko'rgan yoki kattalardan eshitgan, ammo ma'nosini anglamagan huquqiy tushunchalarni bu kitob yordamida osongina tushunib olasiz. Ko'cha-ko'yda yurganda, turli vaziyatlarda huquqiy bilimlaringizdan amalda foydalanishni o'rganasiz. O'z haq-huquqini biladigan, himoya qiladigan va qonunlarga rioya etadigan shaxs bo'lib yetishasiz.

Ensiklopediyadagi maqolalarni yozishda bolalarning yoshi, dunyoqarashi va ma'lumotlarni anglash layoqati hisobga olin-gan. Qonunlar va huquqiy ma'lumotlar imkon qadar sodda til-

da, ortiqcha tafsilotlarsiz berilgan. Maqolalar uchun mavzularni tanlashda bolalar hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar, muammolar nazarda tutilgan. Kitob mundarijasi avvalo davlatchilik tushunchasi, so'ng fuqarolik masalalari, oila, ta'lif, tabiat, axborot, sog'liqni saqlash, mudofaa, huquqbuzarlik va jinoyat kabi muhim tushunchalar doirasida shakllantirilgan.

Umid qilamizki, siz bu maqolalarni o'qib tushunishda qiyinchilikka duch kelmaysiz. Har bir maqolani o'qigandan so'ng hayotiy misollar topib, huquqiy masalalarni yaxshilab tahlil qilasiz. Bu bora-da ustozlaringiz, ota-onangiz, oila a'zolaringiz hamda tengurlaringiz bilan suhbat qurasiz. Mana ko'rasiz, ko'p o'tmay huquqiy savodingiz o'sib, kichik huquqshunosga aylanasiz. Maqsadimiz – sizni qonunlar olamida sayr qildirib, yetuk shaxs sifatida katta hayotga kuzatib qo'yishdir.

1-BOB. DAVLAT BOSHQARUVI


QONUN NIMA?

E'tibor qilganmisiz, bizni o'rab turgan olamdag'i hamma narsa aniq bir tartib bilan harakat qiladi. Masalan, quyosh har kuni os-monga ko'tarilib, kech kirganda g'oyib bo'ladi. To'rt fasl doim bir-biri bilan almashib turadi. Qishda daraxtlar uyquga ketsa, baho'r kelishi bilan uyg'onib, borliq yashnab ketadi. Hayvonlar, dovdaraxtlar, hatto qurt-qumursqlar ham qandaydir tartib, qoidaga bo'ysunib hayot kechiradi. Ya'ni tabiatning o'zida aniq tartib – qonuniyat mavjud.

Insonlarning hayotida ham tartib-qoida bormi? Albatta bor. Biz insonlar ham jamiyatda o'rnatilgan tartib-qoidalarga amal qilib yashaymiz. Odamlar bir-biri bilan murosa qilib, ahil-inoq

bo'lib yashashlari uchun joriy etilgan qoidalar majmuini esa qonun deb ataymiz.

Bizning butun umrimiz qonunlar bilan chambarchas bog'liq. Oddiy misol, piyodalar o'tish joyida haydovchi avtomobilni to'xtatib bolalariga yo'l beradi. Nega haydovchi bunday qiladi? Sababi qonunda shu narsa belgilab qo'yilgan. Ya'ni haydovchi qonunga riya etish orqali atrofidagi odamlarga yaxshilik qiladi. Demak, qonun ham aslida yaxshilikdir.



Qonunlar bo'lmasa, bizning hayotimiz alg'ov-dalg'ov bo'lib ketadi. Odamlar o'rtasida nizolar, tushunmovchiliklar kelib chiqadi. Siz bepul tibbiy yordam olmasligingiz, maktabada o'qimasligingiz, ota-onangiz ishlay olmasligi, bobongizga nafaqa berilmasligi mumkin. Chunki bu narsalarning barini qonun nazorat qilib turadi-da!

Qonunlarni buzishga hech kimning haqqi yo'q. Qonunbuzarlar albatta jazolanadi. Fuqarolari qonunga og'ishmay amal qiladigan davlat rivojlanadi, odamlari tinch va farovon yashaydi.

Butun insoniyat uchun qabul qilingan asosiy qonunlardan tashqari har bir davlatning ham o'z qonunlari bo'ladi. Davlatning qonuni shu davlat hududida amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yurtimizdagи barcha qonunlarning asosi hisoblanadi.



DAVLAT HOKIMIYATI

Davlat hokimiyati juda ham keng tushunchadir. Ya'ni, davlatni bir yoki bir nechta odam emas, balki minglab rahbar-xodimlar boshqaradi. Bu xodimlar odamlarning kundalik muammolariga yechib topishga va shu yo'l bilan xalqqa xizmat qilishga harakat qiladilar.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiiga asoslanadi" deb belgilangan. Demak, davlat hokimiyati uchta yirik tarmoqqa ajraladi. Birinchisi, **Qonun chiqaruvchi hokimiyat**, ya'ni parlament. Parlament senator va deputatlardan tashkil topadi. Ular xalq tomonidan saylovlар orqali saylanadi. Ikkinchisi, **Ijroiya hokimiyati bo'lib**, vazir va hokim kabi rahbarlardan tarkib topadi. Ular parlament chiqargan qonun va qarorlarga amal qilinishiga javobgar. Uchinchisi esa, **Sud hokimiyatidir**. Sud davlatda qonun ustuvorligini ta'minlab turuvchi eng muhim tashkilot hisoblanadi. Davlat hokimiyatidagi eng katta rahbar Prezidentdir. Uning asosiy vazifasi yuqorida sanalgan uch hokimiyatni bir-biri bilan kelishilgan holda, o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishini ta'minlashdan iborat. Ammo Prezident ham qonunlarni chetlab o'ta olmaydi. Oddiy fuqaro qonunga qanday amal qilsa, Prezident ham shunday amal qiladi.

PREZIDENT

Kunda-kunora televizor yoki internetda prezident bilan bog'liq xabarlar beriladi. Chunki prezident juda muhim shaxs, davlat boshlig'i. U davlat nomidan muhim qarorlar qabul qiladi, dozlarb masalalarni hal etadi.

Hozir ko'pchilik mamlakatlarda prezidentlik boshqaruviga amal qilinadi. Prezident ma'lum muddatga saylab qo'yiladi.

Prezidentlik AQSHda 1787 yili vujudga kelgan. O'zbekistonda esa, bu lavozim 1990 yil 24 martdan amalda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, prezident lavozimiga o'ttiz besh yoshga to'lgan, davlat tilini yaxshi biladigan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. U saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan bo'lishi ham kerak. Bitta odam surunkasiga ikki muddatdan ortiq prezident bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti besh yil muddatga saylanadi.

Prezident, odatda, davlat Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni ham sanaladi.

Prezident O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig'ilishida quydagi qasamyodni qabul qilgan paytdan boshlab o'z lavozimiga kirishgan hisoblanadi:

"O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, Respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioxha etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman".

OLIY MAJLIS

Ba'zi muhim masalalar kengash bilan, ko'pchilikning maslahati va mulohazasi bilan hal etiladi. Deylik, oiladagi biror muhim qarorni qabul qilishdan oldin shu oilaning yoshi ulug'lari, qarindoshlar bilan maslahat qilinadi. Davlat boshqaruvida ham shunday.

Xalq saylagan deputat va senatorlar joylardagi muammolar, ko'pchilikka manfaatli bo'lgan masalalarni Oliy Majlisda, ya'ni parlamentda ko'rib chiqadilar. Tegishli xulosa va qarorlar qabul qilinadi, yangi qonunlar ishlab chiqiladi, ba'zi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

Parlament ilk bor XIII asrda Angliyada tashkil qilingan. Oliy vakillik organlari turli mamlakatlarda turlicha ataladi. Jumladan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada, Belgiya va boshqa davlatlarda parlament; AQSH va Lotin Amerikasining aksariyat mamlakatlari kongress; Rossiya Federatsiyasida – Federal Majlis; Litva, Latviya, Polshada – seym va hokazo. O'zbekistonda esa, parlament Oliy Majlis deb nomlanadi.


O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki paltadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududi-da muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi parlamentga saylanishi mumkin.

Bitta odam bir paytning o'zida Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Qonunchilik palatasida bir yuz elliq deputat faoliyat olib boradi. Senatda esa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan vakil bo'ladi. Bundan tashqari, o'n olti nafar senator Prezident tomonidan tayinlanadi.



DEPUTAT

Deputat (lotin tilidagi “deputatus” so‘zidan olingan) so‘zi o‘zbekchada vakil degan ma’noni bildiradi. Ismi jismiga mos xodim. Zero, deputat oddiy xalqning vakilidir. Boshqacha aytganda, deputat oddiy xalq va davlat o‘rtasidagi ko‘prikdir. Masalan, kichik bir qishloq, tuman yoki shaharchada odamlarni qiynayotgan muammo yuzaga keldi. Ichimlik suvi yetishmasligi, maktabda sport zali yo‘qligi yoki yo‘llarning ta’mirtalab bo‘lib qolishi kabi muammolar odamlarning yaxshi yashashi uchun monelik qilishi mumkin. Endi mana shu muammolarni hal qilish maqsadida deputat minglab odamlarning nomidan ish yuritadi. Kerakli tashkilot va rahbarlarga murojaat qiladi. Hududdagi ana shu muammolar bartaraf etilmagunicha tinim bilmaydi. Demak, har bir hududning, aniqrog‘i, har bir hududda yashovchi odamlarning o‘z deputati bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat bo‘lishi belgilangan. Qonunchilikka ko‘ra, yigirma besh yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati etib saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs bir paytning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a’zosi bo‘lishi mumkin emas.

SENATOR

Davlatni birgina prezident boshqarmaydi. Davlat boshqaruvida Oliy Majlisning ham alohida o'rni bor. Senator Oliy Majlisning yuqori palatasi – Senat a'zosidir.

Deylik, o'quvchilarning bিror muammosini hal qilish uchun direktor huzuriga butun sinf ko'chib bormaydi. Sinf sardori yoki gapga chechan o'quvchilardan biri vakil qilinadi. Ba'zida bir necha kishi ham vakil qilinishi mumkin. Ular umumiy holatni tushuntiradi va rahbar bilan birga masalaga yechim topadi. Senator ham shunday. U xalq vakili. Hududlardan saylangan yoki o'z sohasidagi alohida yutuqlari uchun Prezident tomonidan tayinlangan Senat a'zolari xalq nomidan ish ko'radi, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning xalq manfaatlariga mos tushishi uchun harakat qiladi. Bu jarayonda davlatni boshqarishning demokratik yo'li, ya'ni xalq boshqaruvi namoyon bo'ladi.



Senat a'zolari ham deputatlar kabi daxlsizlik huquqidан foydalanadilar. Ular Qonunchilik palatasi yoki Senatning roziligesiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazo choralariga tortilishi mumkin emas.

VAZIRLAR MAHKAMASI

Davlatning qonun chiqaruvchi hokimiyati odamlarning yaxshi turmush kechirishi uchun turli qonun va qarorlarni qabul qiladi. Bu qonun va qarorlar fuqarolarning kundalik hayotida yuzaga keluvchi muammolarni bartaraf etishi hamda ularga qulaylik yaratishi lozim bo'ladi. Ammo ijro hokimiyati bo'lmasa, mazkur qonunlar, farmonlar va qarorlar bajarilmay, qog'ozlarda qolib ketishi, odamlarning turmushi esa yaxshilanmasligi mumkin. Demak, ijro hokimiyati bevosita qonun va qarorlar mazmunining amalga oshirilishiga mas'ul bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasi ijroiya hokimiyatining umumiy markazidir. Unda turli sohalarda qonunlar, farmonlar va qarorlarni bajaruvchi vazirliklar birlashib, yagona mahkamani tashkil qiladi. Misol uchun, Xalq ta'limi vazirligi muktab ishlariga mas'ul bo'lsa, Qishloq xo'jaligi vazirligi dehqonchilik ishlariga mas'uldir.

Demak, Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasida birlashgan vazirliklarning boshlig'i vazir deyiladi. Ana shu vazirlarning barchasiga Bosh vazir rahbarlik qiladi.

Ayrim hollarda, Vazirlar Mahkamasining o'zi ham barcha tashkilotlar va odamlar bajarishi majbur bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqarishi mumkin. Misol tariqasida Vazirlar Mahkamasining Covid-19 pandemiyasi vaqtida odamlarning xavfsizligi uchun chiqargan bir qancha qarorlarini ko'rsatish mumkin.

HOKIM

Mamlakatni faqat davlatning yuqori organlarigina boshqarmaydi. Shahar va tumanlar, viloyatlardagi vaziyatni, o'ziga xosliklarni o'sha yerda yashayotgan kishilar yaxshiroq biladi. Shuning uchun mahalliy hokimliklar tashkil etilgan. Hokimliklarga hokim rahbarlik qiladi. U mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i idir.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolat muddati – 5 yil.

Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.


Tuman va shaharlarning hokimlari viloyat, Toshkent shahar hokimi tomonidan tayinlanadi yoki lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo'y sunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

MAHALLA OQSOQOLI

Xalqimizda yuqori martabali, tashabbuskor, tadbirkor odamlar qadim zamonlardan oqsoqol deb atalgan. Bunday odamlar katta jamoalarga rahbarlik qilishgan. Shaharcha, qishloq va mahallalarda oqsoqollar kishilarning mushkulini oson, og'irini yengil qilishga harakat qilishgan. Odamlar ulardan turli masalalarda maslahat olib turishgan.

Oqsoqollar hududdagi fuqarolar tomonidan ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Bu an'ana qadim zamonlardan beri o'zgarmay kelmoqda. Hozirda oqsoqollar mahalla yig'ini raisi yoki mahalla raisi deb ham ataladi. Oqsoqollarning huquqiy maqomi qonun bilan belgilangan. Ular qonun doirasida o'zi rahbarlik qilayotgan mahallaga doir qarorlar chiqarish, aholining manfaatidan kelib chiqib ish yuritish huquqiga ega.



SUD

Insoniyat hamisha adolatga ehtiyoj sezadi. Qadim-qadim zamonlarda ham qabilaning oqsoqolari, yoshi ulug' va hurmatga sazovor kishilari turli ziddiyatlar, kelishmovchiliklarni hal etishda hakamlik qilganlar.



Tasavvur qiling, mактабдаги oddiy bir zo'ravon bola tartibga chaqirib qo'yilmasa, tergalmasa, o'zi xon, ko'lankasi maydon bo'lib yursa, nimalar qilishi mumkin? O'zidan kuchsizlarni qiynaydi, azob beradi, boshqalarning mulkiga zarar yetkazadi, to'g'rimi? Ana shunday paytlarda adolatning kuchiga har doimgidan ko'proq ehtiyoj seziladi. Sud hokimiysi davlat boshqaruvida ayni shu vazifaga – qonun ustuvorligini ta'minlash va adolat o'rnatishga mas'uldir.

Odil sudlovni amalgalashuvchi davlat organi sud deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiysi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Sudlar tomonidan chiqarilgan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart.

Sud ishlari o'zbek, qoraqalpoq va muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi.

PROKUROR

Prokuror so'zi fransuzchada "qoralovchi" degan ma'noni bildirsa, lotinchada "g'amxo'rlik qilish" degan ma'noni anglatadi. Aslida, prokurorning vazifalaridan kelib chiqsak, so'zning har ikki ma'nosi ham bu kasbga mos keladi. Zero, prokuror zarur hollarda fuqarolik va iqtisodiy sudlarda odamlar hamda tashkilotlarning manfaatlarini ko'zlab sudlarga da'vo arizalari kiritadi, ba'zan esa, jinoyat ishlarida davlat ayblovini qo'llab-quvvatlaydi.

Muxtasar qilib aytganda, prokuror – barcha odamlar, tashkilotlar va rahbar shaxslarning qonunlarni aniq hamda bir xilda bajarishini nazorat qiladigan huquqshunos.

ICHKI ISHLAR XODIMI

Ichki ishlar xodimini "melitsioner" deb atashga o'rganib qolganmiz. Bu kasb egalari kechani kecha, kunduzni kunduz demay xalqimizning xizmatida bo'lishadi. Ichki ishlar xodimi – yurtimizda huquq-tartibotni saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlashga bevosita mas'ul bo'lgan shaxs.

Ichki ishlar xodimi o'z bajaradigan ishning turiga qarab, tergov-chi, surishtiruvchi, mahalla profilaktika noziri, tezkor qidiruv vakili, sud ekspert deb ataladi.

SAYLOV

Inson hayotidagi muhim huquqlardan biri saylash va saylanish huquqidir. Siz saylash huquqi orqali kelajakda mamlakatni kim boshqarishini yoki sizning manfaatlarining uchun kurashuvchi deputatni tanlashingiz mumkin. Oshkora va halol saylov demokratik jamiyatlarga xos xususiyatdir.

O'qiyotgan sinfingizni ko'z oldingizga keltiring. Sinf sardoringiz saylanganmi yo tayinlanganmi? Agar u o'quvchilarning ovoz berishi orqali tanlab olingan bo'lsa, saylangan sanaladi. Agar sinf rahbari o'ziga ma'qul o'quvchini o'quvchilardan so'ramay, o'z istagiga ko'ra tanlagan bo'lsa, sardor tayinlangan hisoblanadi. Albatta, tayinlovdan ko'ra saylovning afzalliklari katta. Unda ko'pchilikning xohish-istagi aks etadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari, mahalliy Kengashlar deputatlari fuqarolar tomonidan bevosita saylanadi.

Saylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolar saylash huquqiga egadir. Har bir fuqaro teng saylov huquqiga ega va bir ovozga ega.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgani uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etmaydi. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi.



RESPUBLIKA

Shahar, qishloq yoki ovulda tug'ilgan bo'lishimizdan qat'i nazar, butun O'zbekiston bizning vatanimizdir. Mamlakatimiz respublika boshqaruvi shakliga ega. U Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va ularga bo'ysunuvchi shahar, tumanlardan tashkil topgan. Toshkent shahri tumanlarga bo'linadi, viloyat tarkibidagi tumanlar esa, shahar, shaharcha, qishloq va ovullarni o'z ichiga olgan. Har bir hududning respublikada o'z o'rni bor.

Respublika boshqaruvi shakli parlamentar, prezidentlik yoki aralash tipdagi respublika ko'rinishida bo'ladi. Parlamentar respublika – parlament to'liq hokimiyatga ega bo'lib, hukumat uning oldida siyosiy javobgar hisoblanadigan, parlament tomonidan saylangan prezident esa, faqat davlat boshlig'i, ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i sanaladigan davlat boshqaruvi shakli. Prezidentlik respublikasi prezident umumxalq saylovida saylanadigan va bir vaqtning o'zida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i hisoblanadigan davlat boshqaruvi shaklidir. Aralash tipdagi respublikada prezidentlik respublikasi bilan parlamentar respublika xususiyatlari qo'shilib ketadi. Ya'ni, prezident umumxalq saylovlarida saylanib, yuridik va real keng vakolatlarga ega bo'ladi. Biroq hukumat parlament tomonidan shakllantiriladi va u parlament oldida ham siyosiy javobgar bo'ladi. Bunda prezident hukumatga umumiylah barlik qiladi, lekin uni bosh vazir boshqaradi.

Hozir jahondagi 190 davlatning 140 dan ortig'i respublika hisoblanadi.

O'zbekistonda prezidentlik respublikasi boshqaruvi shakli amal qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

VILOYAT

"Viloyat" so'zi chekka joy, o'lka degan ma'nolarni anglatadi. So'zning bu ma'nolari hozirgi kunimizga mos bo'lmasa-da, tarixda davlat qurilishi uchun juda mos edi. Ya'ni, O'rta asrlarda davlatning olis hududlariga nisbatan viloyat so'zi ishlatilgan.

Viloyat – ma'muriy-hududiy birlik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida O'zbekiston Respublikasi Viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iboratligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida 12 viloyat: Andijon viloyati, Buxoro viloyati, Farg'ona viloyati, Jizzax viloyati, Xorazm viloyati, Naman-gan viloyati, Navoiy viloyati, Qashqadaryo viloyati, Samarqand viloyati, Sirdaryo viloyati, Surxondaryo viloyati, Toshkent viloyati bor.

Viloyatlarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'yicha hokim rahbarlik qiladi. Hokim o'z viloyatidagi aholining va davlatning manfaatlaridan kelib chiqib, qonunda belgilangan vakolatlari doirasida qarorlar chiqarishi, ish yuritishi mumkin. Viloyat hokimlari 5 yil muddatga Prezident tomonidan tayinlanadi.



KONSTITUTSIYA

Konstitutsiya so'zi lotincha "constitutio" so'zi dan olingen bo'lib, "tuzilish", "tuzuk" degan ma'nolarni anglatadi. Sodda qilib aytganda, konstitutsiya davlatning eng asosiy qonunlari jam bo'lgan muhim hujjatdir. Bu hujjatda davlat tuzilishi, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimi, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimi belgilab berilgan. Konstitutsiya barcha joriy qonunlar uchun asos hisoblanadi.



Konstitutsiya davlatchilikning muhim belgisi hisoblanadi. Ya'ni, o'z konstitutsiyasi bo'lmagan yurt davlat hisoblanmaydi.

"Konstitutsiya" atamasi ilk bor qadim Rim davlati qonunchiligida ishlatiladi. Musulmon Sharqida esa, konstitutsiyaning vazifasini Islom shariati qonunlari bajarib kelgan. Buyuk sarkarda bobomiz Amir Temuring "Tuzuklar"i ham uzoq yillar davomida Osiyo mamlakatlari taraqqiyotiga hissa qo'shgan qonunlar majmui edi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. Mazkur tarixiy hujjat 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo'lsa-da, aslida mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi ilk bor 1990-yil 20-iyunda bo'lib o'tgan mamlakat Oliy Kengashining 2-sessiyasida ilgari surilgan. So'ng 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiyani tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan. Komissiya ishlab chiqqan loyiha matbuotda e'lon qilinib, keng muhokama etilgandan so'ng qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat.

DAVLAT TILI

Olimlarning aniqlashicha, dunyoda yetti mingdan ortiq til bor ekan. Lekin bu tillarning hammasi ham faol ishlatiladi degani emas. Ularning 90 foizi dunyo xalqlari tomonidan deyarli ishlatilmaydi. Jahon tillarining ko'pi unutilayotgan yoki o'lik til hisoblanadi.



O'zbek tili jahondagi qadimiy tillardan biri bo'lib, turkiy tillar oilasiga mansub. Hozirda bizning ona tilimizda dunyoning 50 milliondan ortiq aholi so'zlashib keladi.

O'zbekiston ko'p millatli davlat hisoblanadi. Yurtimizda 130 dan ortiq millat istiqomat qiladi. Biroq, aholimizning asosiy qismi, ya'ni 90 foizga yaqin qismi o'zbek tilida so'zlashadi. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 4-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

1989-yil 21-oktyabr sanasi "O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan tarixiy kundir. Zero, shu kunda ona tilimizning haqiqiy maqomi qonun bilan kafolatlandi.

"O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida"gi qonunga ko'ra davlat hokimiysi organlari, muassasalar, korxonalar va tashkilotlarning rasman ish yuritish tili, muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyatları faoliyatida, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lif muassasalarida ta'lif berish uchun rasmiy belgilangan til o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiysi va boshqaruvin organlarining boshqa hujjatlari o'zbek tili, ya'ni davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.

Davlat hokimiysi va boshqaruvin organlarida ish o'zbek tilida yuritiladi. O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar o'zbek tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASINING DAVLAT BAYROG'I

Har bir davlatning o'z bayrog'i bor. Bu bayroq davlatni boshqa davlatlardan ajratib turuvchi asosiy belgi hisoblanadi. Shuning uchun bayroq davlatning muhim ramzlaridan biri hisoblanadi.

Davlat bayrog'ining o'z rangi, o'ziga xos tasvirlari bo'ladi. Bayroqdagi bu tasvirlar maxsus qonun bilan belgilab qo'yiladi. Bayroq tikilgan paytda mana shu qonunga asosan tayyorlanadi.

Davlat bayrog'i davlat muassasalari, elchixonalar, konsulliklar, vakolatxonalar, bojxonalar va shu kabi binolarda ko'tariladi. Shuningdek, turli rasmiy marosimlar paytida, xalqaro sport sovrinlari topshirilayotganda ham bayroq ko'tariladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ining shakli va ranglari 1991-yil 18-noyabrda "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonun bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i butun uzunligi bo'ylab to'q moviy rang, oq rang va to'q yashil rangli uchta endan tashkil topgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi matodir. Bayroqning yuqori qismida yarim oy va 12 yulduz tasviri tushirilgan. Bayroqning uzunligi 250 sm, kengligi esa, 125 sm ga teng.

O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i doimiy suratda, jumladan, mamlakat Prezidenti, Oliy Majlis, O'zbekiston hukumatি, xalq deputatlari mahalliy kengashlari, hokimliklar ish olib borayotgan binolarda, O'zbekistonning rasmiy delegatsiyalari qatnashayotgan xalqaro tadbirda, bayram kunlari-vazirliklar, davlat qo'mitalari va muassasalari, korxonalar va tashkilotlar binolari, shuningdek, uy-joy binolarida ko'tariladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI

Gerb davlatning asosiy ramzlaridan biri hisoblanadi. Unda davlatga tegishli bo'lgan muhim xususiyatlar aks etgan bo'ladi. Gerb davlat bayroqlarida, muhrda, rasmiy blanklarda, muhim hujjat, pul va davlat zayomlarida, ba'zi binolarda tasvirlanadi. Davlat gerbining mazmuni konstitutsiya yoki maxsus qonun bilan belgilanadi.



O'zbekiston Respublikasining **davlat gerbi** shakli, undagi tasvirlar 1992-yil 2-iyulda "O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida"gi Qonun bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasining **davlat gerbida** tog'lar, daryolar, so'l tomonida bug'doy boshqqlari o'ng tomonida esa chanoqlari ochilgan g'o'za shoxlaridan iborat chambarga o'ralgan gullagan vodiylar uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turgani aks etadi. Gerbning yuqori qismida respublika hurligining ramzi sifatida sakkiz burchak tasvirlangan bo'lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasviri bor. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi – qanotlarini yozgan Xumo qushi ko'rindi. Gerbning pastki qismida respublika Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambar len-tasining bantida "O'zbekiston" deb yozib qo'yilgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Madhiya ham xuddi bayroq va gerb kabi davlatning muhim ramzi hisoblanadi. Faqat bayroq va gerbdan farqli ravishda, bu ramz she'riy-musiqiy shaklda bo'ladi. Ya'ni, madhiya ko'rsatilmaydi, balki ijro etiladi. Madhiya asosan tantanali yig'ilishlar vaqtida, jamiyat hamda muhim voqealarni nishonlash marosimlarida, xalqaro sport musobaqalalarida g'oliblarni mukofotlash chog'ida ijro etiladi. Ammo uni har bir bola yod olishi, turli tadbirlarda ijro etishi kerak. Chunki madhiya vatanga bo'lgan muhabbatni, sadoqatni oshiruvchi asar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi matnini Abdulla Oripov yozgan, musiqasini esa, Mutal (Mutavakkil) Burxonov bastalagan. Madhiyamizning so'zi va musiqasi 1992-yil 10-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi Qonuni bilan tasdiqlangan.

POYTAXT

O'zingiz yashaydigan shahar, qishloq yoki ovulning ham o'ziga xos markazi bor, shundaymi? Odamlar qadimdan savdosotiqqa yoki karvon yo'llariga qulay yerkarga intilganlar, ularning imkoniyatlaridan foydalanganlar. Davlatlar esa, shunday joylarni o'zlariga poytaxt, ya'ni markaz qilib olgan.

Poytaxt – davlatning bosh shahri, mamlakatning ma'muriy-siyosiy markazidir. U markaziy hukumat, parlament va sud muassasalari qarorgohi ham hisoblanadi. Odatda, poytaxt alohida boshqaruv tartibi bo'lgan mustaqil ma'muriy birlikka ajratiladi.

Ko'p mamlakatlarning konstitutsiyasida poytaxt qayerda bo'lishi aytib o'tiladi, ba'zan esa, poytaxt to'g'risida maxsus qonun ham qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6-moddasida "O'zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri" deb ko'rsatilgan.



SHAHAR

Insoniyat tarixining ilk bosqichlarida odamlar asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan. Tabiiyki, u vaqtarda shaharlar bo'lmagan. Lekin Yer yuzi aholisining ortishi bilan qabilalararo janglar ham boshlanadi. Bu vaqtga kelib odamlar himoyalanish uchun mustahkam qo'rg'onlar qura boshlagan. Bu qo'rg'onlarda qabila boshliqlari, oqsoqollar va ularning oilalari yashay boshlaydi. Asrlar o'tib qo'rg'onlar kengayadi. Hunarmandchilik, savdo-sotiq ishlari rivojlanib, dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiga boshlaydi. Ayni shu vaqtga kelib shaharlar paydo bo'la boshlaydi. Chunki, hunarmandlar va savdogarlar yashaydigan joylar doim odamlar bilan gavjum edi.

Keyinchalik, aholining gavjum, geografik jihatdan qulay maskanlariga katta qal'alar va qasrlar qurila boshlanadi. Bu inshootlarning atrofida esa, aholining uylari, so'ng butun hududni o'rab turuvchi mustahkam devorlar quriladi. Shu tariqa yirik shaharlar paydo bo'ladi.





Shahar aholisi asosan ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko'rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalari bilan band bo'ladi. Shahar yon-atrofdagi qishloq va ovullar uchun markaz hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb teng yarmi shaharlarda istiqomat qiladi. Rivojlangan davlatlarda esa, aholining 70 – 80 foizi shaharda yashaydi.

Har qanday maskanga ham shahar maqomi berilavermaydi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, shahar aholisi kamida 7 mingtadan ortishi kerak. Shaharning kichik, o'rta va katta turlari bor. O'zbekistonda jami 120 ta shahar bo'lib, ulardan 17 tasi katta shahar (Toshkent, Samarqand, Namangan, Andijon, Buxoro, Qo'qon, Farg'ona, Nukus, Qarshi, Urganch, Olmaliq, Angren, Chirchiq, Navoiy, Marg'ilon, Termiz, Jizzax) hisoblanadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Andijon, Namangan kabi shaharlar aholisi ko'p, yirik shaharlar sirasiga kiradi.

TUMAN

Qadimgi turkiy tilda tuman so'zi o'n mingni anglatgan. O'n ming kishilik qo'shin tuman deyilgan. Shunday sondagi askarni yetkazib bera oladigan hudud ham tuman deb atalgan. Masalan, "Boburnoma"da ta'kidlanishicha, XVI asrda Samarqand viloyatiga So'g'd, Shovdor kabi tumanlar tegishli bo'lган. Kobul viloyati esa, 14 ta tumandan tashkil topgan.

O'zbekiston sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan davrda tumanylarni "rayon" deb atash odat tusiga kirgan. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan tarixiy "tuman" so'zi qayta tiklandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, tuman ma'muriy-hududiy bo'linish birliklaridan sanaladi.

Tuman davlat yuqori organlarining ko'rsatmalari, qarorlarini hayotga tatbiq etuvchi va bajaruvchi asosiy ma'muriy-hududiy birlik bo'lib, viloyat tarkibiga kiradi. Shuningdek, yirik shaharlar tarkibida shahar tumanylari ham tashkil etilishi mumkin. Tumanlarni mahalliy davlat hokimiyati organlari – tuman hokimlari va xalq deputatlari tuman Kengashlari boshqaradi.

QISHLOQ

Bilasizmi, "Qishloq" so'zi "qishlamoq" so'zidan olingan ekan. Chindan ham bu ikki so'z bir-biriga juda o'xshaydi, ammo qishloqning qishlamoqqa nima aloqasi bor? Gap shundaki, qadimda odamlar asosan chorvachilik bilin shug'ullangan. Ularning muqim yashash joyi bo'lmagan. Bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishgan. Lekin qishda o'tloqlarni qor bosadi, kunlar esa soviy boshlaydi. Bunday damlarda chorvani o'tlatishning imkoni yo'q. Yaxshisi issiq kulbaga borib, qishning qirovli kunlarini o'tkazib olish kerak. Bahor kelganda yana chorvani yaylovlargahaydabketishmumkin. Xullas, tarixda ajdodlarimizning aksariyati qishni shunday o'tkazishgan. Qish o'tkazilgan maskan esa, qishlov deb atalgan. Asrlar o'tib "qishlov" so'zi "qishloq" qa aylanib qolgan.

Qishloq aholisining asosiy qismi dehqonchilik va chorvachilik bilan, umuman, qishloq xo'jaligi faoliyatları bilan band bo'ladi. Qishloq O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishidagi eng quyi bo'g'in hisoblanadi.

Qishloqlarning nomi odatda, shu qishloqda yashaydigan aholining kasbu kori, urug'ning nomi, tarixiy voqealar yoki hududning geografik tuzilishiga qarab qo'yiladi. Nayman, Yettisuv, Uchko'prik, Palandara va h.k.lar shular jumlasidan.



OVUL

Ovul tushunchasi qishloq tushunchasiga juda yaqin. O'tmishda va yaqin tarixda ovullarda asosan ko'chmanchi chorvadorlar o'nashgan.

Qadimda ko'chmanchi bo'lgan, hozir o'troqlashgan odamlar yashaydigan qishloqlarning ovul nomi saqlanib qolgan.

Qozoq, qoraqalpoq va turkman tillarida ham ovul atamasi ishlatiladi. Shimoliy Kavkazdagи tog' qishloqlari ham ovul deb ataladi.



MAHALLA

Mahalla juda qadim tarixga ega. Bundan ming yillar oldin ham shahar va qishloqlarda mahallalar bo'lgan. Mahalla oqsoqollari va bunday oqsoqollardan tashkil topgan kengash odamlar hayotida muhim o'rinni tutadigan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilgan, muammolarga yechim izlagan.

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Buxoroda bundan 1100 yil ilgari bir qancha mahallalar bo'Igani qayd etilgan. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" asarida "mahalla shahar ichidagi shaharcha" degan ta'rifni ishlatadi.

Mahallalar qadimda fuqarolarning kasb-kori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Masalan, zargarlik, misgarlik, ko'nchilik, pichoqchilik, qoshiqchilik, temirchi, egarchi, taqachi kabi.

Mahalla shahar yoki qishloqning ma'lum bir qismi va mana shu hududda o'zini o'zi boshqarishning milliy ko'rinishidir. Har bir mahalla aniq tashkiliy tuzilmaga ega. Unga mahallaning umumiyligi yig'ilishida saylanadigan mahalla kengashi rahbarlik qiladi. Kengash o'z tarkibidan rasman mahalla yig'ini raisi (oqsoqol) ni, o'rindbosari va kotibini saylaydi. Bundan tashqari, mahalla kengashiga keksa, tajribali kishilardan mahalla oqsoqoli maslahatchilarini ham saylanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) fuqarolar yig'ini tomonidan, fuqarolar yig'inini chaqirish imkonini bo'lmagan taqdirda esa, fuqarolar vakillarining yig'ilishi tomonidan uch yilga saylanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun hujjatlari bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hudud doirasida amalga oshiradi.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI



Ikkinci jahon urushidan keyin davlatlar kelajakda yana shu kabi vayronkor falokatlar bo'lmasligi uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashkil etildi. Tashkilot nizomi 1945 yil 26 iyunda imzolangan va shu yil 24 oktyabrdan kuchga kirgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti – jahondagi tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, qo'llab-quvvatlash, mamlakatlar o'rtaсидаги hamkorlikni kuchaytirish uchun tuzilgan tashkilotdir. U davlatlarning bir-biri bilan do'stona, teng huquqli hamkorligiga xizmat qiladi.

BMT o'z a'zolarining suveren tengligiga asoslanadi. BMT davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaydi.

BMT tarkibiga bir nechta xalqaro tashkilotlar kiradi.

BMTning asosiy organlari: Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash, Vasiylik kengashi, BMT hu-zuridagi Xalqaro sud va BMT Kotibiyati.

Bosh kotibni Xavfsizlik Kengashi tavsiyasiga muvofiq Bosh Assambleya 5 yil muddatga tayinlaydi.

Hozir ushbu xalqaro tashkilotga 193 ta davlat a'zo. Ingliz, fransuz, rus, ispan va xitoy tillari BMTning rasmiy tillaridir.

BMT tinchlikni saqlash, inson salomatligi, tabiatni asrash, ta'lif, madaniyat va yana ko'plab shu kabi yo'naliishlarda faoliyat yuritadi. Tashkilot bosh binosi Nyu York shahrida joylashgan.

O'zbekiston BMTga 1992-yil 2-martda a'zo bo'lgan. BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi 1993 yilda ochilgan.

O'zbekiston Respublikasi BMTning Ta'lif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti – YuNESKOga ham a'zodir.



UNICEF

Bilasizmi, jahonda bolalarning yaxshi yashashi, sog'lom va xavfsiz voyaga yetishi uchun xizmat qiladigan xalqaro tashkilot bor. Bu tashkilot Birlashgan millatlar tashkilotining bolalar jamg'armasidir. Tashkilotning qisqartma nomi esa – UNICEF. Mazkur tashkilot BMTning asosiy jamg'armalaridan biri hisoblanadi. U uzoq vaqt davom etgan urush natijasida katta qiyinchiliklarga duchor bo'lgan Yevropa bolalariga g'amxo'rlik ko'rsatish maqsadida 1946 yilda tuzilgan. Keyinchalik esa, butun dunyo bolalariga g'amxo'rlik qiluvchi tashkilotga aylangan.

UNICEF jahondagi barcha bolalar, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlardagi bolalarning sog'lom va barkamol voyaga yetishiga ko'maklashib kelmoqda. Bu tashkilot bolalarga qilgan yaxshiliklari uchun 1965-yilda Nobel mukofoti bilan taqdirlangan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, UNICEFga a'zo bo'ldi va u bilan yaqin hamkorlik o'rnatdi. Jamg'arma tomonidan bolalarni immunizatsiya qilish, boshlang'ich maktab o'quvchilarini oziq-ovqat va ichimlik suv bilan ta'minlash, vaksinalar yetkazib berish bo'yicha uzoq muddatli dasturlar, Orolbo'yini aholisiga yordam ko'rsatish yuzasidan maxsus dastur, "Orol dengizi: mintaqaviy va ekologik yordam loyihasi" ishlab chiqilgan.

BOLA HUQUQLARI

Har bir inson tug'ilganidanoq turli huquq va erkinliklarga ega bo'ladi. Bolalar ulg'ayar ekan, huquqlari ham kengayib boradi.

Bola huquqlari inson huquqlarining bolaga nisbatan qo'llanishidir. Bola huquqlari xalqaro huquqiy hujjatlar bilan ham mustahkamlangan.

Bolalar ota-onalarining kelib chiqishi va kim bo'lishidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi, har bir bola oilada yashash, ota-onasining tarbiyasini olish, ularning g'amxo'rligi ostida bo'lish huquqiga egaligi, har bir bola o'z xohishiga ko'ra erkin kasb tanlashi mumkinligi, har bir bola bilim olish huquqiga egaligi, imkoniyati cheklangan, nogiron bolalar kamsitilishi mumkin emasligi, ular ham boshqa bolalar bilan teng huquqlarga egaligi bola huquqlariga misoldir.



1989 yil 20 noyabrda BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi bu Konvensiyaga 1992 yili qo'shilgan va unda ko'rsatilganidek bolalarning barcha huquqlarini hurmat qilish, ta'minlash va himoya qilish majburiyatini o'z zimmasiga olgan.

Mamlakatimizda bolalar va yoshlar faoliyatiga doir 40 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan 2019 yili Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinnbosari – Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi joriy qilindi va uning huzurida Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha ja-moatchilik kengashi tuzildi.

O'zbekistonda bola huquqlari bir qancha kodeks va qonunlarda o'z aksini topgan. Jumladan, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" alohida qonun ham qabul qilingan.



BOLA HUQUQLARI TO‘G‘RISIDAGI KONVENSIYA

Bilasizmi, huquqshunoslikdaboladeb 18 yoshgato ‘Imaganlarga aytildi. Chunki 18 yoshga to ‘Imagan shaxslar voyaga yetmagan hisoblanadi. Xo ‘sh, bolalarning kattalardan nima farqi bor? Bola kattalarga nisbatan ham jismonan, ham ma ‘nan ojizdir. Bolaning hayotiy bilim va ko ‘nikmalari yetarlicha shakllanmagan bo ‘ladi. U o ‘z huquq va majburiyatlarini to ‘la anglamaydi. Kezi kelganda, o ‘z huquqlarini himoya qila olmaydi. Shuning uchun ham voyaga yetguniga qadar bolalar kattalarning, umuman davlatning himoyasida bo ‘ladi.

Aslida, bolalarning huquqlari butun dunyoda o ‘rnatilgan yagona qonun bilan kafolatlanadi. Bu 1989-yil 20-noyabrda BMTning Bosh Assambleyasida qabul qilgan Bola huquqlari to ‘g‘risidagi konvensiyadir.

Mazkur Konvensiya inson huquqlari tarixidagi eng ahamiyatli hujjatlardan biri hisoblanadi. Chunki mazkur hujjat dunyo davlatlari zimmasiga bolani himoya qilish va ularning huquqlari to ‘liq amalga oshirilishini ta ‘minlash majburiyatini yuklaydi. Boshqacha qilib aytganda, biror bolaning huquqi dunyoning qaysi mintaqasida buzilishidan qat ‘i nazar, shu bolani butun jahon mazkur Konvensiya asosida o ‘z himoyasiga oladi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bola hayoti bilan bog'liq 54-moddani o'z ichiga olgan. Unda bolalarning farovon hayat kechirishi uchun yaxshi sharoitlar yaratib berish, ularni turli shafqatsizlik va zo'ravonliklardan himoya qilish, salomatligini ta'minlash, sifatli ta'lim olishiga imkoniyat yaratish kabi muhim masalalar mustahkamlangan.

O'zbekiston ham 1992-yildan e'tiboran Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilgan. Shu vaqtidan boshlab davlatimiz ham bola huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha xalqaro-huquqiy majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni Konvensiyaning barcha qirralarini qamragan.



BOLA HUQUQLARINING KAFOLATLARI

Bolalarga g'amxo'rlik qilish, ularning huquqlarini kafolatlash maqsadida 2007-yil 23-noyabrda O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan. Bu qonunning asosiy maqsadlariga bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash, jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish masalalari kiradi. Misol uchun, bu qonunga ko'ra yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqidir. Davlat sog'lom bolaning tug'ilishi va rivojlanishini ta'minlash uchun sharoit yaratadi (8-modda). Har bir bola tug'ilgan paytdan e'tiboran familiya, ism, otaismi olish, millati va fuqaroligiga ega bo'lish huquqiga, shuningdek ularni saqlab qolish huquqiga ega (9-modda).

"Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun 32 moddadan iborat. Undagi har bir modda BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi bilan uyg'undir.

BOLALAR OMBUDSMANI

Jamiyatda turli qonunlar qabul qilinishi mumkin. Ammo odamlarning, rahbar shaxslarning bu qonunlarga qay darajada amal qilayotganini nazorat qilib turish kerak. Chunki nazoratchilar bo‘lmasa, odamlar qonunlarga amal qilmay qo‘yishi mumkin. Odatda bunday jiddiy vazifa prokurorlarning zimmasiga yuklatiladi. Biroq prokurordan tashqari ombudsman ham mazkur vakolatga ega mansabdor shaxs hisoblanadi.

Yurtimizda bolalar ombudsmani mavjud. Bu lavozimdagi rahbar yurtimizda bolalarning huquqlari qay darajada himoya qilinayotganini nazorat qiladi. Agar biror bir mansabdor shaxs yoki davlat tashkiloti bolalar huquqlarini inobatga olmasa, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g’risida”gi qonunga amal qilmasa, bolalar ombudsmani shu zahoti chora ko‘radi. Bolalarning huquqlarini himoya qilishga kirishadi.

2-BOB. FUQAROLIKKA OID MASALALAR

FUQARO

Biror davlatning aholisiga nisbatan fuqaro deyiladi. Ya'ni, bola tug'ilgan chog'idayoq O'zbekiston Respublikasining fuqarosiga aylanadi. Shu kundan boshlab bola nafaqat o'z ota-onasining, balki davlatning himoyasiga olinadi. Unga tug'ilganlik haqida guvohnoma, ism va familiya beriladi. Endi shu chaqaloq ham qonunda belgilangan huquq va imtiyozlardan foydalana oladi. Masalan, yangi tug'ilgan bolaning fuqaro sifatidagi eng birinchi huquqi tug'uruqxonadagi muolajalardan bepul o'tish imtiyozidir. Demak, huquqiy jihatdan olib qaralsa, fuqaro shunchaki xalqning bir vakili emas, u qonunda belgilangan huquq va burchlarga ega shaxsdir.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va 1995-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida fuqaroning huquqiy maqomi belgilab qo'yilgan. Jumladan, Konstitutsiyamizning 8-moddasida "O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi", 18- moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiyadolat prinsiplariga mos bo'llishi shart", 29-moddasida "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.



Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin", 35-moddasida "Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart" ekanligi belgilab qo'yilgan.

PASPORT

Hali pasport olmagan bo'lsangiz, qachon olarkanman, deb orzulagan bo'lishingiz mumkin. Chunki juda ko'p huquq va imkoniyatlardan ma'lum yoshga yetib, pasport olgandan keyingina foydalanish mumkin-da.

Pasport olgandan so'ng o'zingizni chinakamiga ulg'aygandek, katta odam bo'lib qolgandek his etishingiz tabiiy.

Pasport ko'plab davlatlarda fuqaro shaxsini tasdiqlovchi hujjat. O'zbekistonda fuqarolik pasporti – O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini va uning egasi shaxsini tasdiqdovchi asosiy hujjatdir.

Prezidentning tegishli farmon va qarorlari bilan yurtimizda xorijga chiqish uchun alohida biometrik pasport tatbiq etilayapti. Amaldagi biometrik pasportlar esa, elektron tashuvchi qurilmaga ega ID kartalarga almashtirilmoqqa. Bu kartalar mamlakat ichida fuqarolik va shaxsni tasdiqlovchi hujjat vazifasini o'taydi.



"O'zbekiston Respublikasida pasport tizimi to'g'risida"gi nizomga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining 16 yoshga to'lgan barcha fuqarolari pasportga ega bo'lishlari shart.

Prezident farmoniga binoan, 2021 yil 1 yanvardan boshlab shaxsni raqamli identifikatsiya qilishning yagona tizimi joriy qilinmoqda. Unga ko'ra, biometrik pasportlar o'rniغا O'zbekiston fuqarosining shaxsini va fuqaroligini tasdiqlaydigan elektron tashuvchi qurilmaga ega hujjat sifatida ID karta joriy etilmoqda.

O'zbekiston fuqarosining 2011 yilgi namunadagi biometrik pasporti 2030 yil 1 yanvardan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi.



ID-karta quyidagi muddatlarga beriladi:

yangi tug'ilgan bolaga bir yoshgacha – 2 yil muddatga;

bir yoshdan 16 yoshgacha – 5 yil muddatga;

16 yoshdan boshlab – 10 yil muddatga.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasporti esa, xorijga chiqish hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga kirish, shuningdek, xorijda turish vaqtida egasining shaxsini va O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlaydigan, pasport egasining shaxsiy biografik ma'lumotlari va biometrik parametrlari saqlangan elektron axborot tashuvchiga ega bo'lgan hujjatdir.




Xorijga chiqish biometrik pasporti fuqarolarga quyidagi amal qilish muddatlariga beriladi:

tug'ilgan kunidan boshlab bir yoshgacha – ikki yil muddatga;

bir yoshdan 16 yoshgacha – 5 yil muddatga;

16 yoshdan oshgan shaxslarga – 10 yil muddatga.

TUG'ILGANLIK HAQIDA GUVOHNOMA



Har bir bola tug'ilganda davlat tomonidan ro'yxatga olinadi. Ya'ni, tug'ilganligi qayd etiladi. Bu jarayonda bola uchun tug'ilganlik haqida guvohnoma beriladi. Bu hujjatda bolaning tug'ilgan sanasi, ismi va familiyasi, ota-onasining ism va familiyalari hamda boshqa zarur ma'lumotlar yoziladi. Mazkur guvohnoma bolaning tug'ilgani va uning ota-onasi kim ekanini tasdiqlab turuvchi yagona hujjat hisoblanadi.

Bolaning tug'ilganligini qayd etish va tug'ilganlik haqida guvohmomani olish majburiydir. Tug'ilganlik haqida guvohnoma ota-ona yoki vasiylarning arizasi bilan bola tug'ilganidan boshlab bir oy muddat ichida rasmiylash-tirilishi kerak.

MULK HUQUQI

Bir qarashda, voyaga yetmagan bolalarda multk huquqi mavjud emasdek tuyulishi mumkin. Lekin aslida hali voyaga yetgan-etmaganingizdan qat'i nazar, siz allaqachon mulkdorsiz, multk huquqiga egasiz. Mulk bu boylikku, qanday qilib mulkdor bo'laman, demoqchimisiz? Siz egalik qiladigan oddiy bir o'quv quroli ham multk hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga ko'ra, voyaga yetmaganlarning shaxsiy foydalanishidagi buyumlari, ya'ni kiyim-kechak, poyabzal, ishlab chiqarish qurollari, o'quv anjomlari va boshqalar ularning xususiy mulki hisoblanadi.

Bolaning shaxsiy foydalanishida bo'ligan, bola tomonidan hadya, meros tariqasida olingan, shaxsiy mehnati evaziga yoki boshqa qonuniy usulda olingan buyumlar, mol-mulk uning xususiy mulkidir.

Oila a'zosi bo'lgan bolalar ular qayerda bo'lishlaridan qat'i nazar, oilaga qarashli yoki ijara ga olingan turar joyga nisbatan huquqqa ega bo'ladi.



Tarbiya, davolash muassasalari va boshqa muassasalarda, qarindoshlari, vasiylari yoki homiylari qaramog'ida bo'lgan yetim bolalar, ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi.

Voyaga yetmagan bolalar o'z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta'minot olish huquqiga ega. Voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun olingan mablag', pensiya, nafaqa uning otasi yoki onasi tasarrufida bo'lib, bolaning ta'minoti, tarbiyasi va ta'lim olishi uchun sarflanishi kerak.

Voyaga yetmagan bolalar o'z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta'minot olish huquqiga ega. Voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun olingan mablag', pensiya, nafaqa uning otasi yoki onasi tasarrufida bo'lib, bolaning ta'minoti, tarbiyasi va ta'lim olishi uchun sarflanishi kerak.





MEROS VA VORISLIK

Odam umri davomida pul, uy-joy, mashina va yana boshqa ko'plab mol-mulklariga ega bo'lishi mumkin. Ammo bir kun kelib odam vafot etganda o'zining hayoti davomida yiqqan mol-mulkulari kimga qolishini o'ylashi tabiiy. Ya'ni, odamning mol-mulki uning vafotidan keyin qonun doirasida kerakli shaxslarga o'tishi lozim. Kishining vafoti bilan unga tegishli bo'lgan mulklarning keyingi taqdirini belgilash qonun tilida "meros va vorislik masalalari" deyiladi.

Meros deganda merosxo'rga qoldirilayotgan mol-mulk tushuniladi. Meros mulkini oluvchi odam "voris yoki merosxo'r", mol-mulkni qoldiruvchi odam esa, "meros qoldiruvchi" deb ataladi.

Qonunlarimizga ko'ra, merosga bo'lgan huquq ikki asosda yuzaga keladi:

1. Vasiyat qilish orqali. Bunda vasiyatnoma shaxsan meros qoldiruvchi tomonidan tuziladi. Meros qoldiruvchi vasiyatnoma tuzilganidan keyin uni istagan paytda hech bir sababni ko'rsatmay bekor qilishi va o'zgartirishi mumkin.

2. Qonun bo'yicha meros. Qonun bo'yicha vorislik vasiyat mavjud bo'lmasa yoxud butun merosning taqdirini belgilamasa amalga oshiriladi. Qonun bo'yicha merosxo'rlikka birinchi navbatda meros qoldiruvchining farzandlari, eri (yoki xotini) va ota-onasi da'vogardir. Agar meros qoldiruvchining bunday yaqinlari bo'lmasa, unda aka-ukalari va opa-singillari, shuningdek, uning ham ota, ham ona tarafdan bobosi va buvisi merosxo'r bo'lishi mumkin.

Merosga meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan, uning o'limidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar kiradi.

Bilish kerakki, ba'zi narsalarni meros sifatida qoldirish mumkin emas va ular meros tarkibiga kirmaydi. Bular quyidagilar:

- meros qoldiruvchining shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquq va majburiyatlar;
- hayotga yoki sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun tovon undirish huquqi;
- aliment majburiyatlari tufayli yuzaga kelgan huquqlar va majburiyatlar;
- pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlar olish huquqi;
- mulkiy huquqlar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy nomulkiy huquqlar.

Quyidagi holatlarda merosxo'r merosdan mahrum qilinadi:

1. Meros qoldiruvchini qasddan o'ldirgan yoki uning hayotiga suiqasd qilgan shaxslar;
2. Ehtimol tutilgan merosxo'rlardan birortasini qasddan o'ldirgan yoki ularning hayotiga suiqasd qilgan shaxslar;
3. Meros qoldiruvchi o'zining oxirgi xohish-irodasini amalga oshirishiga qasddan to'sqinlik qilgan va shu orqali o'zlarining yoki o'zlariga yaqin shaxslarning vorislikka chaqirilishiga yoxud merosning o'zlariga yoki o'zlariga yaqin shaxslarga tegishli ulushi ko'paytirilishiga imkon yaratgan shaxslar;
4. Bolalariga nisbatan ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan va meros ochilgan paytda bu huquqlari tiklanmagan ota-onalar ana shu bolalardan qolgan mulkka voris bo'lish huquqiga ega emaslar.

VASIYLIK VA HOMIYLIK

Hayot bir tekis emas. Ba'zida biz kutmagan voqea-hodisalar yuz berishi mumkin. Kimsidir bolaligidayaoq ota-onasidan ajrashi, sud ota-onasini ota-onalik huquqidan mahrum etishi yoki boshqa sabablarga ko'ra ota-ona himoyasidan ajrab qolishi mumkin. Ammo har qanday bola ota-ona himoyasi, tarbiyasi va g'amxo'rligiga muhtoj. Bu masala vasiylik va homiylik vositasida hal etiladi.

Vasiylik va homiylik ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek, bunday bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi. Vasiylar va homiylar o'z himoyalariagi shaxslarning huquq va manfaatlarini har qanday shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan, sudlarda ham maxsus vakolatsiz himoya qiladilar.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga ko'ra, vasiylik o'n to'rt yoshga to'Imagan bolalarga va sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga nisbatan belgilanadi. Homiylik o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarga, shuningdek, sud tomonidan muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan belgilanadi. Sog'lig'ining yomonligi sababli mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan muomalaga layoqatli shaxslarga nisbatan homiylik shu shaxslarning iltimosiga binoan belgilanishi mumkin.

Vasiylik huquqini suiiste'mol qilish qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

MUALLIFLIK HUQUQI



Tasavvur qiling. Chiroyli bir rasm chizdingiz. Lekin bir o'rtoq'ingiz shu rasmni o'ziniki qilib oldi va tasviriy san'at darsida shu rasm bilan a'llo baho oldi. Yoki she'r yozdingiz. Kimdir shuni o'g'irladi va gazetaga jo'natdi. She'r uning nomidan chop etildi. Yoki kompyuterda yangi dastur yaratdingiz. Sizning kodingizni kimdir o'zlashtirdi va uni biroz o'zgartirib, o'z dasturini yaratdi va undan katta daromad ko'rdi. Yuqoridagi barcha holatlarda sizning mualliflik huquqlaringiz buzildi.

Hayotda ham, kattalar orasida ham bunga o'xshash voqealar uchrab turadi. Mualliflar, ijodkorlar va ularning merosxo'rlarining qonuniy huquqlarini mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasi tartibga soladi.

Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lmish fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek ifodalananish usulidan qat'i nazar, tatbiq etiladi. Shuningdek, oshkor qilingan yoki qilinmaganidan qat'i nazar, yozma, og'zaki, ovozli yoki video yozuv, tasvir, hajmli-fazoviy va boshqa shakllardagi asarlarga ham qo'llanadi.

Mualliflik huquqi g'oyalar, prinsiplar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar yoki konsepsiyalarga emas, balki ifoda shakliga nisbatan tatbiq etiladi. Masalan, siz boshqa istalgan muallif yoritgan bir xil mavzuni, g'oyani, qarashlarni o'z asaringizda aks ettirishingiz mumkin. Lekin aynan u ishlatgan shaklda, ko'chirib ifodala-shingiz mualliflik huquqini buzish hisoblanadi.

Mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin ellik yil davomida amal qiladi. Muallifning vafotidan keyin birinchi marta e'lon qilingan asarga bo'lgan mualliflik huquqi esa, asar e'lon qilinganidan keyin ellik yil davomida amal qiladi.

Mualliflik huquqi, mualliflik ismi-sharifiga bo'lgan huquq va muallif obro'sini himoya qilish huquqi muddatsiz muhofaza qilinadi.



BITIMLAR

Ikki yoki undan ortiq kishining o'zaro kelishuvi bitim deb ataladi. Bitim tuzish deganda shartnoma tuzishni ham tushunish mumkin. Masalan, siz non sotib olish maqsadida do'konga kirdingiz. Sotuvchi sizga nonning ming so'm ekanligini aytdi. Siz sotuvchi aytgan narxga rozi bo'ldingiz va ming so'm pulni uzatdingiz. Sotuvchi esa, o'z navbatida, sizga nonni beradi. Mana shu siz va sotuvchining o'rtaqidagi bitimdir.

Bitim tuzilgani kishilarning u yoki bu ehtiyoji qondiriladi. Yuqoridagi misolda, sizga non kerak, sotuvchiga esa pul kerak edi. Demak, sotuvchi va sizning o'rtangizdagi bitimda har ikki tarafning ehtiyoji qondirildi. Yana bir muhim jihat, bitim tuzilganda taraflarning erki saqlanishi kerak. Ya'ni, hech kim sizni majburlab bitim tuzishga haqli emas.



Bitim tuzilganda bitimning shartlariga har ikki taraf ham amal qilishi kerak. Bitim shartlarini buzgan odam qonun oldida javobgardir. Misol uchun xaridor va sotuvchi o'rtaqidagi bitimda xaridor kelishilgan pulni to'lashga, sotuvchi esa, sifatli mahsulot berishga javobgardir. Deylik, sotuvchi shartni buzib sizga sifatsiz narsani sotsa, bilingki u qonun oldida javobgardir.



YO'L HARAKATI QOIDALARI

Ko'chaga chiqqach, yo'l harakati qatnashchisiga, ya'ni piyodaga aylanasisz. Qoidalarga rioxha qilish majburiyatini olasiz. Chunki yo'lda harakatlanishning ham o'ziga yarasha qonun-qoidalari, tartiblari bor. Ular "yo'l harakati qoidalari" deb ataladi.


Yo'l harakati qoidalariга rioxha qilish nafaqat sizning, balki boshqalarning ham hayoti, sog'lig'i va kayfiyatiga ta'sir qiladi. Yo'l harakati qoidalariни buzish javobgarlikka sabab bo'ladi. Yoshingiz sabab shaxsan javobgar bo'lmagan taqdiringizda ham, siz uchun ota-onangiz javob berishiga to'g'ri keladi.

Yo'l harakati qoidalariда bolalarga bog'liq bir qancha o'ziga xosliklar bor:

Yo'lda velosiped, aravani boshqarish, miniladigan yoki yuk ortiladigan hayvonlarni haydab o'tishga 14 yoshdan kichik bo'lmagan, mopedni boshqarishga esa, 16 yoshdan kichik bo'lmagan shaxslarga ruxsat etiladi.

Avtomobilning orqa o'rindig'idagi 12 yoshgacha bo'lgan bolalar xavfsizlik kamarini taqmasligi mumkin.






Bolalar guruhini yo'lkalar va piyodalar yo'laklaridangina, ular bo'limganda esa, yo'l yoqasidan faqat kunduzi va katta yoshdagilar kuzatuvida olib yurishga ruxsat etiladi.

O'rghanuvchi o'quv muddati yakunida "A" toifadagi avtomototransport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo'lishi uchun – 16 yoshga, "B" va "S" toifalari uchun – 18 yoshga, "D" toifasi hamda tramvay va trolleybuslarni boshqarish uchun 21 yoshga to'lgan bo'lishi kerak.

Bolalar guruhini tashkiliy tashishda transport vositasi salonida bir yoki bir nechta katta yoshli kuzatib boruvchi shaxs bo'lishi shart.

12 yoshga to'lmagan bolalarni motosiklning orqa o'rindig'ida, shuningdek, yengil avtomobilga bolalarni ushlab turuvchi maxsus qurilma o'rnatilmagan bo'lsa, uning oldingi o'rindig'ida tashish mumkin emas.



XARIDOR

Maktab oshxonasidan, do'kon yoki bozordan biror narsa sotib olgan bo'lsangiz kerak, albatta. Yuridik til bilan aytganda, bunda siz bevosita oldi-sotdi ishlarining ishtirokchisiga aylandingiz. Demak, oldi-sotdi ishlarining huquqiy asoslarini ham bilib qo'yishingiz zarur.

Qonunga ko'ra, bolalar 6 yoshdan kichik oldi-sotdi ishlarining qatnashchisi bo'lishi mumkin. Ya'ni, shu yoshdan boshlab sotuvchi bilan mustaqil bitim tuzishingiz va huquqlaringizni talab qilishingiz mumkin.

Xarid – biror mulk yoki narsa-buyumni to'lov evaziga sotib olishdir. Oldi-sotdi ishlari doimo biror haq (to'lov) evaziga bo'ladi. Agar mana shu shart bajarilmasa, bu oldi-sotdi hisoblanmaydi. Bu holat huquqiy tilda "mulk huquqining o'tishi yoki mulkdorning o'zgarishi" deyiladi.

Sotuvchi xaridorga ishlatishga yaroqli buyumni sotishi shart. Agar sotuvchi o'g'irlangan yoki sifatsiz buyumini sotsa, qonun oldida javob beradi.

"Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun xaridorlarning manfaat va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.



KORRUPSIYA


Davlat kasalxonalaridagi ayrim shifokorlar bepul xizmat uchun pul so'rasa yoki imtiyondan a'llo baho olishingiz, olimpiadada yutishingiz uchun sizdan pul talab qilishsa, bu korrupsiyadir. "Korrupsiya" so'zini o'zbek tilidagi "pora" so'zi bilan tenglashtirish mumkin. Ammo "korrupsiya"ning ma'nosi keng.



Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir. U inson, jamiyat va davlat uchun katta xavfga ega, ijtimoiy hayotning barcha sohalariga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Pora faqat pul ko'rinishida bo'lmaydi. Ba'zan u sovg'a, qimmatbaho buyum yoki boshqa ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Qonunlarimizga ko'ra, pora olgan odam ham, pora bergen odam ham aybdor. Pora uchun jazo uning katta-kichikligi, odamlarga keltirgan zarariga qarab belgilanadi.






Pora olgan odam uchun bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha jarima yoki 5 yildan 15 yilgacha qamoq jazosi berilishi mumkin. Pora bergan odam uchun esa bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravariga-cha miqdorda jarima yoki 5 yildan 15 yilgacha qamoq jazosi berilishi mumkin.

Korrupsiya muammosiga jahoning istal-
gan mamlakatida duch kelish mumkin.
Ammo bu korrupsiya hamma joyda bir xil
degani emas. Uning yuzaga kelish sabablari
hamma joyda turlicha bo'lib, tarixiy davr ham-
da ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga
bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston BMTning Korrupsiyaga qarshi
konvensiyasiga ayrim bildirishlar, bayonotlar
va shartlar bilan 2008 yil 7 iyulda qo'shilgan.



SOLIQLAR

Maktabda bepul o'qiysiz, bepul tibbiy ko'rikdan foydalanasiz, aholining, ya'ni siz va bizning tinch-osuda hayot kechirishimiz uchun harbiylar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tunu kun harakatda bo'ladi – bularning barchasi davlat tomonidan ta'minlanadi. Albatta, har qanday xizmatni amalga oshirish uchun mablag' zarur. Kerakli sharoitni yaratishi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashi, sizu bizni himoya qilishi uchun davlatga soliq to'laymiz.

Soliq – davlat tomonidan undiriladigan va budjetga o'tkaziladigan majburiy to'lovdir. Soliqlarni to'lashdan bosh tortish ma'muriy va jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.



Mamlakatimizda soliqlar va yig'implarni belgilash, joriy etish va bekor qilishga, hisoblab chiqarish hamda to'lashga doir, shuningdek, soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi,adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraliigi va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiysi prinsiplariga asoslanadi.

FUQARONING MUOMALA LAYOQATI

Bola tug'ilishi bilan o'z davlatining fuqarosiga aylanadi. Biz uni fuqaro deb atasak ham, huquqiy jihatdan u hali to'la qonli fuqaroga aylanmaydi. Aniqrog'i, go'dakning huquq va burchlari cheklangan bo'ladi.

Voyaga yetmagan bolada hayotiy tajribalar va ko'nikmalar rivojlanmagan bo'ladi. U hayotda duch kelishi mumkin bo'Igan turli muammoli vaziyatlarga o'zi mustaqil yechim topa olmaydi. Bundan tashqari, uning jismoniy holati (bo'y-basti, jismoniy kuchi) ham katta hayotga mustaqil moslashib ketish uchun to'sqinlik qiladi. Shuning uchun voyaga yetmagan shaxslar ota-onasi yoki vasiylarining qaramog'ida bo'ladi. Bunday kichik yoshdagি bolalar muomalaga layoqatsiz fuqaro sanaladi. Qachonki, bola voyaga yetib, o'z huquqini anglasa va burchlarini mustaqil bajara olsa, u muomalaga layoqatli fuqaro sanaladi.

Fuqaroning yoshiga ko'ra muomalaga layoqati uch davrga bo'linadi. Birinchisi, 14 yoshgacha bo'Igan bolalar. Bu davrda bola to'liq muomalaga layoqatsiz hisoblanadi. Ikkinchisi, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'Igan bolalar. Bu davrda bola qisman muomalaga layoqatli hisoblanadi. Qonunda belgilangan tartibda ayrim masalalarda bola muomalaga layoqatsiz hisoblanmasligi mumkin. Uchinchisi, 18 yosh va undan yuqori yoshda bo'Igan shaxs muomalaga to'la layoqatli sanaladi.

Qonunchiligidan ko'ra, 18 yoshga to'Igan shaxs muomalaga layoqatli fuqaro hisoblanadi. Ya'ni, 18 yoshga to'Igan fuqaroga bola emas, balki katta odam sifatida qaraladi.

VOYAGA YETMAGANLAR

Bola o'n sakkiz yoshga to'limaguncha u ba'zi huquq va imkoniyatlardan ota-onasi yoki ularning o'rmini bosuvchi kishilar yordamida foydalanadi. Chunki u bu yoshgacha voyaga yetmagan shaxs hisoblanadi. Huquq-imkoniyatlardan mustaqil foydalanishi cheklash aslida huquqlarni himoyalashdir.

Masalan, siz o'n to'rt yoshdasiz, deylik. Hayotiy tajribangiz va bilimlaringiz kamligi sababli bu bitimning oqibatlari, undan kelib chiqadigan mas'uliyat va javobgarlik haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'lmasligingiz ehtimoli katta. Shu sababli bu o'rinda ota-onangizning yordami kerak bo'ladi, chunki ular har doim sizning manfaatlariningizni ko'zlaydi.

Lekin voyaga yetmaganlarda ma'lum huquqlardan mustaqil foydalanish imkoniyati, ba'zi huquqbazarlikni sodir etganlik uchun esa, bevosita javobgarlik ham bor. Masalan, o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiylarining roziligidan o'z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish; mualliflik huquqini amalga oshirish; kredit muassasalariga omonatlar qo'yish va ularni tasarruf etish; mayda maishiy bitimlarni hamda boshqa bitimlarni tuzish kabilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqli.

Ba'zi huquqbazarliklarni sodir etgan taqdirda esa, voyaga yetmaganlar ham umumiylasoslarda ma'muriy javobgarlikka tortiliishi mumkin.



EMANSIPATSIYA

Ayrim hollarda, qisman muomalaga layoqatli bolalar to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi mumkin. Soddaroq tilda aytsak, 16 yoshli bolani katta odam deb e'lon qilish ham mumkin. Faqat bunday qaror ota-ona yoki vasiylarning roziligi bilan chiqariladi. Huquqshunoslikda bunga emansipatsiya devyiladi. Qonunlarda o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan bo'lsa yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, u to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.



3-BOB. OILA VA NIKOH

OILA

Ota-onamiz, bobo-buvi, aka-uka, opa-singillarimiz bilan birga yashashimiz oiladir. Oila o'zaro hurmat, mehr-oqibat, g'amxo'rlik maskanidir. Mana shu xususiyatlar bor joyda rivojlanish bo'ladi. Oila butun bir jamiyatning kichik ko'rinishidir. Jamiyat ana shunday oilalar birlashuvidan taraqqiy etadi.

Oila nikohga qaraganda ko'proq kishilarni birlashtiradi, ya'ni nikoh ikki kishini bog'lagan bo'lisa, oila o'z ichiga bir necha, ba'zan o'nlab kishilarni birlashtiradi. Oila munosabatlari qarindoshlik aloqalarining keng ko'lamida namoyon bo'ladi: er va xotin, ota-onalari va bolalar, aka-uka, opa-singil, aka-singil, opa-uka, qaynota-qaynona, kuyov va kelin, shuningdek, qayn-singil, qaynog'a, qaynnini, qaynegachi va boshqalar.

Oilaning nikohdan farqi bor. Oila qat'iy ravishda tuzilish va tugatilish sanasiga ega emas. Yangi a'zo qo'shilishi yoki oila a'zolaridan birortasining ketishidan qat'i nazar, oila o'z hayot faoliyatini davom ettiradi, faqat tuzilishi, tarkibi bir oz o'zgargan bo'ladi.

O'zbekistonda oila munosabatlarini tartibga soluvchi alohida Oila kodeksi va boshqa qonunlar bor.



NIKOH

Nikoh ikki jins vakili, ya'ni erkak va ayolning o'zaro roziligi bilan tuzilgan ittifoqdir. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga ko'ra erkak yoki ayoldan biri rozi bo'lmasa, nikoh tuzilmaydi. Bu shuni anglatadiki, qiz bolalarni majburlab turmushga berish yoki yigitlarni majburlab uylash qonunga zid. Demak, nikoh bo'lishi uchun eng muhim omil ikki tarafning roziligidir.

Nikoh qurishni istagan yoshlar, avvalo, nikoh yoshiga yetgan bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra yigitlar ham, qizlar ham 18 yoshdan nikoh qurish huquqiga ega. Shu bilan birga, tuzilgan nikoh qonuniy rasmiylashtirilishi shart.

Qachonki, nikoh tuzilsa, yangi oila vujudga keladi. Er-xotin o'zining huquq va burchclarini yaxshi anglashi, o'zaro bir-birini hurmat qilishi va tushunishi oila mustahkamligining garovidir. Xalqimizda "Oilta tinch – yurt tinch" degan maqol bor. Ya'ni, oila tinch-totuv bo'lsa, unda tarbiyali, bilimli bolalar voyaga yetadi. Bir kun kelib, ular yurtning ravnaqi, taraqqiyoti uchun hissa qo'shadi.



ERKAK VA AYOLNING TENG HUQUQLILIGI

Odamlar ikki jinsli bo'ladi: erkak va ayol. Bu ikki jins vakillari jamiyatda teng huquqlidir. Ya'ni, erkaklarning huquq va imtiyozlari erkak bo'lgani uchun ko'p, ayollarning huquq va imtiyozlari ayol bo'lgani uchun kam emas.

Tarixga nazar solsak, deyarli barcha jamiyatlarda ayollarning huquqlari erkaklarnikiga nisbatan muayyan darajada cheklab kelingan. Masalan, ayollarda rahbarlik lavozimida ishlash, saylovlarda ovoz berish huquqi bo'lmagan. Ularga uy bekasi sifatida qaralgan. Lekin kishilik jamiyatlarining rivojlanishi barobarida so'nggi asrlarda erkak va ayollar huquqini tenglashtirish yo'lida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Xotin-qizlarning huquqlari qonunlar bilan kafolatlandi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar" deb belgilangan. Bundan tashqari, 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunda ham erkak va ayollarning huquqiy tengligi kafolatlandi.

Erkak va ayolning huquqi oilada ham teng. O'zbekiston Respublikasining Oil a kodeksida erkak va ayolning faqat o'z ixtiyori bilan nikoh qurishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Deylik, qiz bolalarni majburlab turmushga berish yoki yigitlarni majburlab uylash qonunga zid. Oilada er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari ham teng bo'lib, ular oilaviy masalalarni o'zaro kelishib hal qilishadi.

ISM

Ism – bu kishining kimligini aniqlashtiruvchi, uni boshqalardan farqlab turuvchi belgilar dan biri. Masalan, biror o'rinda kimdir aynan sizni nazarda tutmoqchi bo'lsa, ismingizni aytadi va bu bilan sizni boshqalardan ajratib ko'rsatadi. Agar sizning ismingiz bilan atlувчilar bir nechta bo'lsa, ismingizdan tashqari familiyangiz, otangizning ismi ham aytishi mumkin.

Ism huquqi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga muvofiq, fuqaroning ajralmas huquqi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ko'ra, agar qonundan yoki milliy odatdan boshqacha tartib kelib chiqmasa, fuqaro o'z familiyasi va nomidan, shuningdek otasining ismi bilan huquq va burchlarga ega bo'ladi hamda ularni amalga oshiradi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda fuqaro taxallusdan (to'qilgan ismdan) foydalanishi mumkin. Fuqaro qonunda belgilangan tartibda o'z ismini o'zgartirishga haqli. Fuqaroning o'z ismini o'zgartirishi avvalgi ismi bilan olgan huquq va burchlarini bekor qilish yoki o'zgartirish uchun asos bo'lmaydi.

Boshqa shaxsning ismidan foydalanib huquq va burchlarga ega bo'lishga yo'll qo'yilmaydi.

QARINDOSHLIK

E'tibor qilganmisiz, ayrimlar o'z qarindoshini qondoshim, deb ham ataydi. Aslida, bu ham to'g'ri. Sababi, qarindoshlarning qoni bir bo'ladi-da. Huquq tilida qarindosh deb bir umumiy uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslarga aytildi. Sodda qilib aystsak, bir ota-onadan tug'ilgan bolalar, shu bolalarning bolalari va h.k. o'zaro bir-biriga qarindosh hisoblanadi. Demak, qarindoshlarni bir ajdod (bobo va buvi) birlashtirib turadi.

Qarindoshlik munosabatlarida ham darajalar mavjud. Xalq orasida "yaqin qarindosh", "uzoq qarindosh" degan tushunchalar bor. Bu tushunchalar huquqshunoslikda to'g'ri shajara va yon shajara shaklida aytildi. Farzand to'g'ri shajara bo'yicha o'z ota-onasiga birinchi darajali, ya'ni eng yaqin qarindosh hisoblanadi. Aka-uka va opa-singillar yon shajara bo'yicha ikkinchi darajali qarindosh hisoblanadi. Nevara bobo va buvisiga nisbatan to'g'ri shajara bo'yicha ikkinchi darajali qarindosh bo'ladi. Amaki, amma, tog'a, xolalaringiz yon shajara bo'yicha sizga uchinchi darajali qarindosh hisoblanadi.

Qarindoshlik munosabatlarida tug'ishgan va o'gay qarindosh degan tushunchalar ham bor. Bir ota-onadan tug'ilgan farzandlar o'zaro tug'ishgan hisoblanadi. Ota bir, ona boshqa yoki aksincha, ona bir, ota boshqa aka-uka va opa-singillar o'zaro o'gay hisoblanadi. Er-xotinning ilgarigi nikohidan bo'lган farzandlar esa, qarindosh emaslar.

Qarindoshlik masalalarini yuqoridaqicha turlarga ajratish, darajalarini belgilash ayrim huquqiy munosabatlar uchun zarurdir. Masalan, meros taqsimotida yoki nikoh rishtalarini o'rnatishda qarindoshlik darajalari hisobga olinadi.

BOLALARING OILADAGI XUSUSIY MULKI

Oila ham kichik jamoaviy birlashma. Unda har kim o'z xususiy mulkiga ega bo'lishi mumkin. Jumladan, bolalar ham.

Xo'sh, bolalar qanday turdag'i xususiy mulkka ega bo'lishi mumkin?

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga ko'ra, voyaga yetmagan bolalar qonunda belgilangan tartibda xususiy mulk egasi bo'lish huquqiga egadirlar.

Voyaga yetmagan bolalarning qonuniy tartibda hadya, meros tariqasida olgan mol-mulki, shaxsiy mehnati va tadbirkorlik faoliyati natijasida orttirgan mol-mulki ularning xususiy mulki hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarning tadbirkorlik faoliyatiga qo'shgan mablag'i va undan orttirgan daromadi, agar bola bilan ota-onal yoki oilaning boshqa a'zolari o'rtasida boshqacha tartibni belgilovchi shartnomaga bo'lmasa, voyaga yetmaganlarning xususiy mulki hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarning shaxsiy foydalanshidagi buyumlari, masalan, kiyim-kechak, poyabzal, ishlab chiqarish qurollari, o'quv anjamlari va boshqalar ularning xususiy mulki hisoblanadi.

VOYAGA YETMAGANLARNING JAVOBGARLIGI

18 yoshga to'limagan shaxs voyaga yetmagan hisoblana-di. Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda o'n olti yoshga to'lgan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. Voyaga yetmagan shaxs ma'muriy huquqbuzarlik turlarining og'ir shakllari bilan qonunbuzarlikka yo'l qo'ygan taqdirda, u umumiylasoslarda ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Boshqa holatlarda jazoni belgilashda fuqaroning yoshi inobatga olinadi.

Qonunchilikda voyaga yetmagan shaxs jinoyat sodir qilgan taqdirda uning javobgarlik masalalari yoshga xos turli omillarni hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlar uchun ham muayyan jazo turlari belgilangan. Bular: a) jarima; b) majburiy jamoat ishlari v) axloq tuzatish ishlari; g) ozodlikni cheklash; d) ozodlikdan mahrum qilish jazolaridan iborat. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoning boshqa turlari va qo'shimcha jazolar tayinlanishi mumkin emas. Voyaga yetmaganlar uchun jazo miqdori va muddatlari ancha qisqartirilgan.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan belgilanadigan jarima eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda tayinlanadi. Majburiy jamoat ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan oltmisht soatdan ikki yuz qirq soatgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi. Axloq tuzatish ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan o'z ish joyida o'tash, aybdor hech qayerda ishlamasra, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o'zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o'tash tariqasida

bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanadi. Ozodlikni cheklash voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan asosiy jazo chorasi sifatida olti oydan ikki yilgacha muddatga tayinlanadi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi olti oydan o'n yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin. Voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo'Imagan jinoyat sodir etgan, ehtiyoitsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan yoxud qasddan uncha og'ir bo'Imagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi.

4-BOB. TA'LIM

TA'LIM OLİSH HUQUQI

Insonning eng muhim huquqlaridan biri ta'lim olishdir. Chunki ta'lim bizning ertangi kunimiz, tinch va farovon hayotimizga zamin yaratadi. Biz o'zimizdagি bilim va salohiyat bilan yurtimiz taraqqiyotiga o'z hissamizni qo'sha olamiz. Yaxshi mutaxassis bo'lish uchun esa, o'qish, o'rganish kerak.

Kishi aqlini taniganidan boshlab bilim oladi. Ta'lim tizimida o'qish-o'rganishdan tashqari, ota-onasi va yaqinlарidan, shuningdek, o'zi mustaqil ham bilim oladi. Bilim olish huquqi daxlsizdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, har kim bilim olish huquaiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar yaratiladi.

Ta'lim olish huquqi ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish orqali kafolatlanadi.

Chet ellik fuqarolar O'zbekiston Respublikasining xalqaro sharhnomalariga va qonun hujjatlariiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ta'lim olishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan fuqaroligi bo'limgan shaxslar ta'lim olish uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

TA'LIM TURLARI

Yurtimizda ta'lim olish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Qonunga ko'ra O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar bilim olish uchun yaratilgan ana shu imkoniyatdan foydalanishga haqli. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risidagi" Qonunida ta'lism turlari quyidagicha belgilangan:



Maktabgacha ta'lism va tarbiya;
Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lism;
Professional ta'lism;
Oliy ta'lism;
Oliy ta'limdandan keyingi ta'lism;
Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
Maktabdan tashqari ta'lism.

Bolalar dastlab Maktabgacha ta'lism va tarbiya muassasasida bilim oladilar. Bu joyda bola maktabga tayyorlanadi. Keyingi bosqichda o'qish Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lism muassasasida davom ettiriladi. Bu bosqichdagi ta'lism har bir bola uchun majburiydir. Professional ta'lism muassasalariga kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar kiradi. Professional ta'lism, o'qishni davom ettirish ixtiyoriy bo'lib, undagi ta'lism turlarini ayrimlari bepul, ayrimlari esa to'lov-kontrakti asosidadir.

MAKTABGACHA TA'LIM



Bog'chaga borgan bo'lsangiz kerak-a? Atrofimizdagi olam haqidagi tasavvurlarni, sonlar va harflar haqidagi tushunchalarni ayni shu dargohda hosil qilganmiz. Ilk bor she'rlar va topishmoqlar, qo'shiqlarni ham maktabgacha ta'lism bosqichida o'rganganmiz. Bog'chada yaxshi ta'lism-tarbiya olgan bolalar ta'larning keyingi bosqichlarida, jumladan, mакtabda boshqalarga nisbatan ilg'orroq bo'lishini hayotiy tajriba ko'p bor isbotlagan.

Maktabgacha ta'lism bilimlar zinasining ilk pog'onasi bo'lib, uzuksiz ta'lism tizimining boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolalning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlash, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otish, tizimli o'qitishga tayyorlab borishga, shuningdek, bolalarni umumiyl o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lism turidir.

Maktabgacha bo'lgan yosh bola shaxsijismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan shakllanishining asosiy davridir.

Maktabgacha bo'lgan yosh quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi:

go'daklik (tug'ilganidan bir yoshgacha);


ilk bolalik (bir yoshdan uch yoshgacha);
 maktabgacha bo'lgan kichik yosh (uch yoshdan to'rt yoshgacha);
 maktabgacha bo'lgan o'rtacha yosh (to'rt yoshdan besh yoshgacha);
 maktabgacha bo'lgan katta yosh (besh yoshdan yetti yoshgacha).

Maktabgacha ta'lif va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida o'quv yili joriy yilning 2 sentyabridan keyingi yilning 31 mayigacha bo'lgan davrni, yozgi sog'lomlashtirish davri joriy yilning 1 iyunidan 31 avgustiga cha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Yurtimizda davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lif muassasalari faoliyat olib boradi. Nodavlat maktabgacha ta'lif tashkilotlari davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida ham tashkil etilishi mumkin.

Rasmiy uslubda maktabgacha ta'lif tashkiloti yoki maktabgacha ta'lif muassasasi deb ataladigan o'quv dargohlari xalq tilida bog'cha deyiladi.



UMUMIY O'RTA TA'LIM

Shunday bilim va ko'nikmalar borki, ularni egallamay turib turmush kechirishning deyarli imkoni yo'q. Masalan, o'qish va yozishni, oddiy hisob-kitobni bilmaydigan odamni ko'z oldingizga keltirib ko'ringchi. Bunday odam hozir sizu biz yashayotgan dunyoga moslashib ketishi mumkinmi? Albatta, yo'q! Chunki bunday bilimlar hayotning poydevori, har qanday kasbning kaliti hisoblanadi. Shuning uchun ham bu kabi birlamchi bilim va ko'nikmalarni egallah O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi uchun majburiydir. Mazkur bilimlar maktablarda o'qitiladi.

Biz umumiy o'rta ta'lismu muassasasini maktab deb atashga odatlanganmiz. Ammo bilishingiz lozimki, maktabning huquqiy nomi "umumiy o'rta ta'lismu muassasasi"dir.

Yurtimiz hududida juda qadim zamonlardan buyon maktablar faoliyat yuritib kelgan. Tarixda boshlang'ich ta'lim beriladigan maktablarga nisbatan maktabxona, qorixona deyilgan. Maxsus bilim beriladigan dargoh esa, madrasa deb atalgan.



Diniy bilimlar bilan birga, aniq va tabiiy, ijtimoiy fanlar ham o'rgatiladigan maktablar yurtimiz hududida XIX asrning so'ngiga kelib ochila boshlandi. Dastlab bunday maktablarni Ishaqxon Ibrat, Abdulla Avloniy kabi jadidchilar ochishgan.

Umumiyl o'rta ta'limgiz tizimida har bir bola egallashi zarur bo'lgan tabiat, jamiyat, san'at, madaniyatga doir bilim va ko'nikmalar o'qitiladi. Bu bilimlarni egallagan har bir shaxsning ilmiy dunyoqarashi kengayadi, turli ijtimoiy vaziyatlarni mustaqil tahlil qiladi, baholaydi. Tez-tez duch kelishi mumkin bo'lgan hayotiy-maishiy muammolarga yechim izlay oladi. Bundan tashqari, o'z ustida ishlash va mustaqil ta'limgiz olish ko'nikmasini egallaydi. Asosiysi, Umumiyl o'rta ta'limgiz o'quvchi kelajakda egallashi mumkin bo'lgan kasb yoki hunar uchun poydevor vazifasini o'tab beradi.

Umumiyl o'rta ta'limgiz 1-sinfidan 11-sinfgacha bo'lib, quyidagi bosqichlardan iborat:

Boshlang'ich ta'limgiz (1 – 4-sinflar);

Tayanch o'rta ta'limgiz (5 – 9-sinflar);

O'rta ta'limgiz (10 – 11-sinflar).

Umumiyl o'rta ta'limgiz tashkilotining birinchi sinfiga bolalar yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'limgiz bosqichida o'qish, yozish, dastlabki matematik amallar, tabiatshunoslik, geografiya va Vatan tarixi yuzasidan ibtidoiy tushunchalar, musiqa, tasviriy san'at singari asosan savodxonlikni, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan fanlar o'qitiladi.

Tayanch o'rta ta'limgiz bosqichida o'quvchiga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmi berilib, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyati rivojlantiriladi.

O'rta ta'limgiz davrida o'quvchida kasblar bo'yicha birlamchi ko'nikmalarni shakllantirish va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'RTA MAXSUS TA'LIM

Maktabda 9-sinfga o'qib, tayanch o'rta ta'limga bosqichini yakunlagan o'quvchi o'z ixtiyori bilan o'qishni O'rta maxsus ta'limga muassasasida davom ettirishi mumkin. O'rta maxsus ta'limga muassasasi deganda akademik litseylar nazarda tutiladi. Akademik litseylarda ta'limga oluvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal rivojlantirishga qaratilgan, shuningdek, chuqur, tabaqlashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'limga beriladi.

Nodavlat ta'limga tashkilotlarida umumiyoq o'rta va o'rta maxsus ta'limga to'lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin. Jumladan, so'nggi yillarda yurtimizda ko'plab xususiy maktablar tashkil qilinmoqda.

Iqtidorli va iste'dodli bolalarning qobiliyatini yanada rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek, mакtab-internatlar tashkil etilishi ham mumkin. Xususan, har bir viloyatda ochilgan Prezident maktablari, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Abdulla Qodiriy nomidagi ijod va boshqa fan yo'nalishlariga ixtisoslashtirilgan maktablar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi majburiy ta'limga egallashi shartligi bois, jismoniy, aqliy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ham o'qish sharoitlari yaratilgan. Bunday bolalar ixtisoslashtirilgan maktablarda, umumiyoq o'rta va o'rta maxsus ta'limga muassasalarida boshqa bolalardan ajratib, inklyuziv shaklda o'qitiladi. Agar o'quvchida maktabga qatnashning imkon bo'lmasa, u holda o'qituvchi shu bolaning uyiga borib dars o'tadi.

Maktablardagi sinfonalarida o'quvchilarning soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

PROFESSIONAL TA'LIM

Kishi o'zi va oilasini moddiy jihatdan ta'minlashi, farovon yashashi uchun kasb-hunarli bo'lishi zarur.

Yoshlarga hunar o'rgatish masalasiga qadim-qadimdan jid-diy ahamiyat berilgan. Chunki bu jamiyat taraqqiyoti, oilalar tinchligining muhim asoslaridan biridir. O'z hunari bilan el orasida obro' topgan, ro'zg'orini bekamu ko'st ta'minlaydigan kishilar ni ko'rgan-bilgan bo'lsangiz kerak. Bunday darajaga o'z ishini puxta va halol bajarish bilan erishiladi. "Hunarli xor bo'lmas", "Bir yigitga qirq hunar oz", "Hunar – hunardan unar" kabi xalq maqol-larida ana shu hayotiy haqiqat aks etgan.

Kasb-hunar o'rgatish masalasi o'ta muhimligi sabab ta'lim tizimida hunar o'rgatishga, ya'ni professional ta'limga alohida e'tibor beriladi.



Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

boshlang'ich professional ta'lim;

o'rta professional ta'lim;

o'rta maxsus professional ta'lim.



Boshlang'ich professional ta'limga kasb-hunar maktabalarida to'qqizinchi sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda, kunduzgi ta'limga shakli bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda umumta'limga fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asos qilib olinadi.

O'rta professional ta'limga kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda olib boriladi. Bu jarayon davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'limga shakllari bo'yicha umumiyligi o'rta, o'rta maxsus ta'limga hamda boshlang'ich professional ta'limga negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'limga texnikumlarda umumiyligi o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'limga negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida beriladi. Bunda ta'limga kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'limga shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

OLIY TA'LIM

Umumi o'rta va o'rta maxsus ta'lim yoki professional ta'lim bosqichlarini bitirgan so'ng aksariyat yoshlar oliy o'quv yurtlariga kirishga harakat qiladilar. Sababi bungacha olingan ta'lim bilan kishi oliy ma'lumotli hisoblanmaydi. Oliy ma'lumotli mutaxassis deganda muayyan ixtisoslik bo'yicha oldida turgan nazariy va amaliy muammolarni mustaqil hal qilishga qodir, malakali shaxs tushuniladi. Bunday oliy malakali mutaxassislarni tayyorlovchi ta'lim bosqichiga Oliy ta'lim deyiladi. Oliy ta'lim bosqichi ixtiyoriy. Biroq Oliy ta'lim bosqichida o'qish uchun talabgor ayrim shartlarni bajarishi kerak. Jumladan, talabgor Umumi o'rta va o'rta maxsus ta'lim yoki professional ta'lim bosqichlarini bitirgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, Oliy ta'limda o'qishni istagan talabgor muayyan fan, ijodiy yoki jismoniy sinovlardan muvaffaqiyatli o'tishi kerak.



Oliy ta'lim oliy o'quv yurtlarida beriladi. Oliy o'quv yurtlari deganda universitet va institutlar tushuniladi. Oliy ta'lim uzoq tarixga ega bo'lib, u dastlab Qadimgi Sharq mamlakatlarda paydo bo'lgan. Bobil, Misr, Xitoy singari mamlakatlarda miloddan bir necha ming yillar oldin Oliy ta'lim tizimi vujudga kelgan. Tarixda yurtimiz hududida Oliy ta'lim madrasalarda berilgan. Hozirgi tushunchadagi ilk oliy o'quv yurti O'rta Osiyo jadidchilik harakati asoschisi Munavvarqori rahbarligida 1918-yilda Toshkentda tashkil etilgan. Birinchi oliy o'quv yurtining nomi Xalq dorifununi bo'lgan. Hozirda bu o'quv dargohi O'zbekiston Milliy universiteti deb nomlanadi.



PREZIDENT MAK TABI

Yurtimizda bolalarning sifatli ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Jumladan, iqtidorli bolalar aniqlash, ularni har tomonlama rivojlantirish, intellektual, ilmiy va ijodiy salohiyatini yuksaltirish uchun Prezident maktablari tashkil etilgan.

Prezident maktablari oddiy umumiyligida ta'lim maktabalaridan jiddiy farq qiladi. Bu maktabda o'quvchiga ko'proq tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalari chuqur o'rgatiladi. O'quvchilarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Prezident maktablarida o'quvchilar sinflarga 12 nafardan taqsimlanadi. Ularning o'qishi, sport bilan shug'ullanishi, sog'lom ovqatlanishi, maroqli hordiq chiqarishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi. O'quvchilar yotoq bilan ham ta'minlanadi. Eng muhimmi, Prezident maktabida o'qish bepuldir.

Prezident maktablari bitiruvchilariga shahodatnoma bilan bir qatorda yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish imkoniyatini beruvchi xalqaro darajadagi diplomlar ham beriladi.

Prezident maktablariga o'quvchilar imtihon asosida qabul qilinadi. Mazkur maktabda to'rtinchisini to'liq a'llo bahoga bitirgan, kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan bolalar o'qishi mumkin.

ABITURIYENT

“Abituriyent” so‘zi o‘zbekchada “ketishga otlangan” degan ma’noni anglatadi. Istilohda esa bu so‘z maktab, litsey va kollej bitiruvchilariga nisbatan ishlataladi. Biroq odatda bu so‘z oliy o‘quv yurtiga kiruvchilarga, ya’ni talaba bo‘lishga da’vogarlik qiluvchilarga nisbatan qo’llanadi.

Oliy o‘quv yurtiga kirish har bir yoshning orzusi. Zero, oliy o‘quv yurti kishi kelajagining poydevori hisoblanadi. So‘ngi yillarda yurtimizda oliy o‘quv yurtlari soni keskin ko‘paya boshladi. Turli nodavlat, xalqaro oliy o‘quv yurtlarining soni ortib bormoqda. Bu bilan qabul kvotalari sezilarli miqdorda oshdi. Abituriyentlar uchun kirish imtihonlari soddalashtirildi, qabul jarayonlari, hujjalarni topshirish usullari qulaylashtirildi. Davlat tomonidan kam ta’minlangan, imkoniyati cheklangan, ammo iqtidorli yoshlarga keng imtiyozlar berilmoqda.

Yurtimizda abituriyentlar 20-iyundan 20-iyulga qadar ro‘yxatdan o’tkaziladi. Hujjalarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining rasmiy veb-sayti – dtm.uz orqali onlayn tarzda qabul qilinadi.

Abituriyentlarga test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi hamda fanlar ketma-ketligi bir xil bo‘lgan beshtagacha bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tanlovda ishtirok etish huquqi berilyapti. Abituriyent bir vaqtning o‘zida bir nechta oliy o‘quv yurtlari kirish imtihonidan muvaffaqiyatlari o‘tsa, u faqat bitta yo‘nalish bo‘yicha o‘qish huquqiga egadir.

5-BOB. TABIAT



TABIAT

Tabiat butun mavjudotni o'z ichiga olgan, jonli va jonsiz borliqdir. Biz, insonlar ham ana shu tabiatning bir qismimiz.




Atrofimizdagи dov-daraxtlar, suv va havo, tuproq, olslarda-
gi tog'u toshlar, hayvonot va o'simliklar – bularning bari tabiat-
ning xuddi biz kabi a'zosidir. Ularning birortasiga jiddiy zarar ye-
tishi boshqa a'zolarning hayotiga bevosita yoki bilvosita ta'sir
o'tkazadi.

Odam o'z faoliyati davomida tabiatga o'zgartirishlar kiritadi. Odam tomonidan, ya'ni ijtimoiy mehnat jarayonida yaratiladigan moddiy boyliklar shartli ravishda "ikkinchi tabiat" deyiladi. Ma-
salan, vodoroddan urangacha bo'lgan 92 ta kimyoviy element
tabiiydir, undan keyingi kashf etilganlari sun'iydir. Barcha sun'iy
sintetik kimyoviy birikmalar, odam yaratayotgan atom va yadro
energiyalari "ikkinchi tabiat"ga kiradi.


Oxirgi yuz-ikki yuz yil ichida sanoat va ilm-fanning rivojlanishi in-
sonning tabiatga aralashuvini haddan ziyod oshirib yubordi. Bu
esa iqlim o'zgarishi, haroratning ortishi, havo ifloslanishi, qurg'oq-
chilik va suv toshqinlari kabi muammolarni keltirib chiqardi.

Borliqdagi muvozanatning buzilishi inson hayotiga salbiy ta'sir qiladi, turli ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli tabiatga oqilona munosabatda bo'lish har doim muhimdir.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar", deya ta'kidlangan.

Inson o'z salomatligi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o'z salomatligini atrof-muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish huquqiga ega.



Tabiiy resurslardan, jumladan, tuproq, yerosti boyliklari va foydali qazilmalar, suv va suv havzalari, jonli tabiat ob'yektlaridan foydalanish, chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish qonun bilan tartibga solinadi.

Jonli va jonsiz tabiat davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

TABIAT MUHOFAZASI



Odamzod qanchalar aqlli va bilimdon bo'lmashin, u baribir tabiatning bir bo'lagidir. Biz – odamlar tabiatdagi boshqa jonzotlar, o'simliklar kabi biologik mavjudotmiz. Tanamizda soniyasiga milliardlab kimyoviy hodisalar ro'y beradi. Masalan, o'pkamizni to'ldirib nafas olarkanmiz, qon tomirlarimiz bo'ylab kislorod aylanadi. Kislorod esa o'z navbatida tanamizdagи boshqa moddalar almashinuvi uchun ko'mak beradi. Biz nafas oladigan toza havo tarkibida kislorod 20,9 foizni tashkil qiladi. Agar kislorodning miqdori atigi bir foizga kamaysa, odamga havo yetishmay o'zini yomon his qila boshlaydi. Demak, tabiat biz – odamlarning hayot manbai, birlamchi uyi hisoblanadi. Uni avaylab asrash esa har birimizning burchimizdir.




Odamlar tomonidan tabiatga yetkaziladigan har qanday zarar qonunan taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" deya belgilab qo'yilgan.

Tabiat muhofazasi deganda yer usti va yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosini ifloslanishdan, zararlanishdan, vayron bo'lishdan, yo'q bo'lib ketishdan himoyalash tushuniladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sirasiga davlat qo'riqxonalari, tabiat bog'lari, davlat tabiat yodgorliklari, muhofaza etiladigan landshaftlar, milliy bog'lar, davlatlararo muhofaza etiladigan tabiiy hududlar kiradi.

Ayrim bolalar tomonidan chiqindilarning maxsus joyga emas, duch kelgan joyga tashlab ketilishi, suvni tejab ishlatmaslik yoki oqava suvlarga chiqindi tashlash, dov-daraxtlarni sindirish, jonivorlarga ozor berish kabi illatlar uchrab turadiki, bu tabiatga zarar yetkazish sanaladi. Bunday huquqbuzarlar qonun oldida javobgar sanaladi va jarimaga tortiladi.



YER OSTI BOYLIKLARI



Yer osti boyliklari va foydali qazilmalar davlatning, xalqning boyligidir. Ular yer yuzida bir tekis taqsimlanmagan. Shu sababli ba'zi mamlakatlarning yer osti boyliklari yo'q. O'zbekiston esa, yer osti va yer usti boyliklariga boy o'lkadir.

Yer osti boyliklari yer qa'rida joylashgan va sanoatda foydalaniладиган ресурслардир. Фойдали qazilmalar esa, yer qa'ridagi tabiiy mineral hosilalar bo'lib, ular qatoriga yer osti suvlari, sho'r ko'llarning tuz eritmalari ham kiradi. Yer osti boyliklari va foydali qazilmalar energetika, qora va rangli metallurgiya, kimyo sanoati, qurilish kabi ishlab chiqarishning muhim tarmoqlari taraqqiyoti negizidir.

Yer osti boyliklari minglab-millionlab yillar ichida yuzaga kelgan va cheklangan resurslardir. Ulardan samarali foydalanish va tabiatga zarar yetkazmaslik zarur. Foydali qazilma konlari ichida arxey, proterozoy, rifey, paleozoy, mezozoy va kaynozoy yoshidagi konlar bor. Mineral boyliklar ko'plab tabiiy resurslardan

farqli ravishda qayta tiklanmaydi. Dunyo okeani suvlari va yer osti sho'r suvlari mineral xomashyoning muhim rezervlari hisoblanadi.

Ayni damda butun dunyoda sanoatning keskin rivojlanishi va iste'molning ortishi, fan-texnologiyaning yangi imkoniyatlari qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni taqozo etyapti. Ba'zi rivojlangan davlatlar fazodan, jumladan, Oydan foydali qazilmalar olishni ham mo'ljallayapti.

Tabiiy resurslarga bepisand munosabatda bo'lish, yer osti va yerusti boyliklarini hisob-kitobsiz, samarasiz yoki haddan ziyod ko'p ishlatish ekologik fojalarga, Yer shari ekotizimining buzilishiga va boshqa jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga ko'ra, yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Yer qa'rining foydalanilayotgan va foydalanimayotgan uchastkalari, shuningdek, texnogen mineral hosilalar yer osti boyliklari davlat fondini tashkil etadi.

Yer osti boyliklari va foydali qazilmalardan foydalanish qonun bilan tartibga solinadi. Agar aholi punktlari, shahar atrofi mintaqalari, sanoat, transport va aloqa ob'yektlari hududlarida yer qa'ridan foydalanish aholi hayoti va sog'lig'iga xavf tug'dirishi, atrof-muhitga zarar yetkazishi ehtimoli bo'lsa, bunday foydalanish cheklanishi mumkin.

SUV VA SUV HAVZALARI

Suvni tirklikning manbai deya e'tirof etamiz. Zero, suv bor – hayot bor. Yer yuzining uchdan ikki qismini suv, bir qismini esa, quruqlik tashkil qiladi. Ammo mavjud suvning 97,5 foizi iste'molga yaroqsiz sho'r suv bo'lib, biz odamlar va o'simliklar uchun zarur bo'lgan chuchuk suv 2,5 foizni tashkil etadi, xolos. Shuning uchun suv resurslaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish masalalari O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risi" dagi Qonunida tartibga solingan.





Suv havzalari deganda daryolar, ko'lllar, suv omborlari, kanal va hovuzlar, yer osti suvlari hamda muzliklar nazarda tutiladi. Mazkur suv havzalari davlat mulki sanaladi. Biroq shunday suv havzalari borki, ular bir nechta davlat hududida joylashgan. Masalan, Amudaryo, Sirdaryo, Orol dengizi O'zbekiston va qo'shni davlatlar hududida joylashgan. Bunday suv havzalari dan davlatlararo tuzilgan o'zaro bitimlar asosida foydalaniladi.

Suvdan foydalanish insonning tabiiy ehtiyojидir. Biz – odamlarning yashashi uchun havo qanchalik kerak bo'lsa, suv ham shunchalik zarur. Shuning uchun har bir shaxs suvdan foydalanish huquqiga ega. Shu bilan birga, suvni muhofaza qilish, undan oqilona foydalanish har bir kishining fuqarolik burchidir.




UY HAYVONLARI

Uyda hayvon boqasizmi? Uy hayvonlari odamlarga ko'p foyda berishdan tashqari insonlarning hayvonot bilan munosabati, ularga mehr-e'tibor ko'rsatishi hamdir. Uy hayvonlari kasal bo'lganda yoki profilaktika maqsadida ularni veterinar ko'rigidan o'tkazish zarur. Ularga g'amxo'rlik qilish, sog'lig'i va gigiyenasiга e'tiborli bo'lish juda muhim. Chunki bu yon-atrofdagilarning, jumladan, insonlarning salomatligiga ham o'z ta'sirini, albatta, o'tkazadi.



Hayvonlarni xonakilashtirish juda qadim zamonlardan boshlangan. Odam urchitadigan, ko'paytiradigan hayvonlar uy hayvonlari deyiladi.

Qachondir yovvoyi bo'lgan uy hayvonlari xonakilashtirish natijasida ancha o'zgarishlarga uchragan.



Uy hayvonlariga qoramol, qo'y, echki, tuya, ot, it, mushuk, quyon, tovuq, o'rdak, g'oz, kurka, kaptar, asalari, ipak qurti va boshqalar kiradi.

Ipak qurti va asalariidan boshqa uy hayvoni-
lari umurtqalilar turkumi-
ga kiradi.



Har qanday hayvon zotiga, jumladan, uy hayvonlariga ham yaxshi mu-nosabatda bo'lish zarur. Hayvonlar ham xuddi insonlar kabi tabiatning bir bo'lagi. Ularga ozor yetkazish, jarohatlash, qarovsiz qoldirish kabi g'ayriinsoniy xatti-harakatlar qonunchilikka ko'ra javobgarlikka sabab bo'ladi.



It va mushuklarni aholi punktlarida saqlashning ham o'ziga yarasha tartib-qoidalari bor. Jumladan, itlar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari tomonidan ro'yxatga olinishi va har yili qayta ro'yxatdan o'tkazilishi, emlanishi kerak.

It ochiq joylarda sayr qildirilganda u tumshuqbog'da va 2 metrgacha uzunlikdagi yetovda, jamoat joylarida 1 metrgacha uzunlikdagi yetovda bo'lishi kerak, tumshuqbog'siz va yetovsiz faqat maxsus ajratilgan maydonlarda sayr qildirishga ruxsat beriladi. Itlarni 14 yoshdan kichik bolalar sayr qildirishi mumkin emas.

Akvarium va hovuzlarda ko'paytiriladigan baliqlar, kanareyka, tovus, to'ti kabi ko'r kam qushlar ham uy hayvonlariga yaqin turadi.

QIZIL KITOB

Ishonish qiyin, atigi yuz yil oldin ham yurtimizdagi to'qayzorlarda yo'lbarslar yashagan. O'zbekiston tabiatini xilma-xil o'simligu hayvonlarga boy bo'lgan. Ammo odamlarning tabiat muhofazasiga beparvolik qilgani, o'simliklarni payhon qilib, hayvonlarni ovlagani tufayli oxirgi 100 yil ichida yurtimizdagi noyob jonzotlar keskin kamayib ketdi. Ayniqsa, turon yo'lbarsi, gepard, qulon, orol sulaymonbalig'i kabi jonivorlar butunlay yo'q bo'lib ketgani judayam achinarli. Yana shunday hayvonlar borki, agar biz ularni asramasak, yaqinda yo'qolib ketishi mumkin. Shuning uchun ham tog' qoploni, qoraqulqoq, silovsin, oq tirnoqli ayiq, xonguli, burama shoxli echki, Buxoro qo'yisi, Qizilqum arxari, jayron kabijuda kam uchraydigan jonivorlar davlat himoyasidadir.

Tabiatdagi jonzotlarning keskin qirilib ketishi faqatgina O'zbekistonda emas, balki butun dunyoda kuzatilayotgan hodisadir. Shu bois, yo'qolib ketish xavfi bo'lgan o'simlik va jonzotlarni asrash maqsadida dunyo bo'yicha 1963-yildan Qizil kitoblar tuzila boshlandi. Bunday kitoblar ikki turda bo'ladi. Birinchisi Xalqaro Qizil kitob bo'lib, unda butun jahondagi noyob va kamyob o'simligu jonivorlar ro'yxatga olinadi. Xalqaro Qizil kitobga panda, yo'lbars, kit, karkidon, burgut kabi minglab hayvonlar kiritilgan.



Biror hududga tegishli Qizil kitobda esa shu joydag'i noyob jonivoru o'simliklar ro'yxatga olinadi. Masalan, O'zbekiston Qizil kitobiga 372 ta noyob hayvon va o'simlik turlari kiritilgan.



O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunida hayvonot dunyosining muhofazasiga doir masalalar tartiblashtirilgan.

Hozirda vatanimizning noyob hayvonot olamini himoya qilish uchun maxsus qo'riqxonalar mavjud. Qo'riqxona – atrofisim to'r bilan o'ralgan judayam ulkan yer maydoni bo'lib, unda jonivorlarning emin-erkin yashashi uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Bu yerdagi hayvon va o'simliklar tun-u kun qo'riqlanadi. Maqsad esa, yo'qolib ketish xavfi bo'lgan jonivor va o'simliklarni kelajak avlodlar uchun ham saqlab qolishdir.




6-BOB. AXBOROT VA SO‘Z ERKINLIGI

AXBOROT

Biz tug‘ilganimizdanoq axborot bilan yuzlashamiz. Faqat buni anglamaymiz, xolos. Aqlimizni tanigach esa, olgan axborotlarimiz asosida bilim va tajribalar to‘plashni boshlaymiz. Ko‘rgan, eshitgan, his qilgan ma'lumotlarimizning barchasi axborotdir. Biroq bu so‘z ko‘proq xos ma’noda ishlatiladi. Odatda, axborot deganda biron voqeа haqidagi batafsил xabar, ma'lumot tushuniladi.

Axborotga ehtiyoj, uni tez olish va yetkazishga qadimdan ehtiyoj kuchli bo‘lgan. Shu maqsadda jarchilar, choparlar, xabarchi kaptarlardan foydalaniлgan. Hozir bu vazifani ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar bajarayapti.

Ommaviy axborot vositalari, ya’ni televideniye, radio, gaza-ta-jurnal, internet saytlari va bosma nashrlardan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardagi yangiliklar, reportaj va sharhlar ham axborot sanaladi.



Xalqaro huquqda ikki va undan ortiq davlatlar o'rtasida olib boriladigan diplomatik muzokaralar natijasida tuzilgan bitimlar, shartnomalar yoki qabul qilingan boshqa qarorlar haqidagi xabar ikki yoki undan ortiq davlatlar tomonidan rasmiy e'lon qilinadi. Ikki davlat o'rtasida olib borilgan muzokaralar haqidagi axborot, odatda qo'shma axborot deb ataladi.

Har bir fuqaro axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqi ga egaligi Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan. Faqat amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasno.

Deylik, o'rtog'ingiz darsda yaxshi javob bera olmadi va qoniqarsiz baho oldi. Siz uni telefonda tasvirga tushirib, ijtimoiy tarmoqda tarqatib yubordingiz. Bu sinfdoshingizning shaxsiy hayotiga daxl qilish, uning obro'sini to'kish hisoblanadi va endi siz qonun oldida javob berasiz.

Biz hayotda qonun-qoidalar va axloqiy me'yorlarga qanday amal qilsak, axborot tarqatayotganda bu masalaga yanada e'tiborliroq bo'lishimiz kerak.



SO'Z ERKINLIGI

Har bir inson ozod va erkin bo'lishni istaydi. So'z erkinligi esa, ozod insonning eng birinchi galdagi sifatidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega" deb belgilab qo'yilgan. Ya'ni, O'zbekistonning har bir fuqarosi o'z fikrini ommaviy ravishda: og'zaki yoki yozma shaklda aytish huquqiga ega. Biroq, bu qonunga ko'ra har kim og'ziga kelganini aytishi mumkin degan xulosani bermaydi. 29-moddaning davomida: "...amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir" deyilgan. Ko'rindaniki, siz aytayotgan fikr, ma'lumot yoki axborot amaldagi qonunchilikka zid kelmasligi kerak. Masalan, so'z bilan birovga ozor berish, haqoratlash, yolg'on aytib tuhmat qilish kabi illatlar so'z erkinligi degani emas.

So'z erkinligi demokratik jamiyatning muhim belgisi bo'lib, odamlardagi bu huquq O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida", "Noshirlik faoliyati to'g'risida", "Reklama to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunlarda aks etadi.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

Biz muhim axborotni televide- niye, radio, internet saytlari, gazeta va jurnallar orqali qabul qilib olamiz. Demak, bu sanaganlarimiz axborotni ommaviy tarzda yetkazib beruvchi vositalardir. Mazkur ommaviy axborot vositalari (qisqartmasi: OAV) bugun hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ularning faoliyati esa, qonun bilan tartibga solingan.



O'zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, “Gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, axborot agentliklari, televide- niye (kabelli, efir-kabelli televide- niye) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo‘lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalaridir” (1-modda).



O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari erkin. Har kim ommaviy axborot vositalarida chiqish, o'z fikri va e'tiqodini oshkora bayon etish huquqiga egadir. Ommaviy axborot vositalari axborotni izlash, olish va tarqatish huquqidan foydalananadilar hamda o'zlar e'lon qilayotgan axborotning to'g'riliqi va haqqoniyligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Har kim ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish, ya'ni tashkil etish huquqiga ega. Lekin, o'n sakkiz yoshga to'imagan shaxslar, qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoxud sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar, faoliyati qonun bilan taqiqlangan jamoat birlashmalari OAVni ta'sis eta olmaydi.



JURNALIST

Hozirda eng faol, eng kerakli va sharaflı kasblardan biri jurnalistlik kasbidir. Nega deganda, biz bugun axborot asrida yashayapmiz. Har birimiz kuniga minglab axborotlar bilan tanishamiz: televideniye, internet, gazeta va radioda berilgan turli ma'lumotlarni tomosha qilamiz, eshitamiz yoki o'qiyamiz. Ammoshuncha axborotnikim tayyorlaydi? Millionlabma'lumotlarni saralab, ichidan eng kerakligi va ishonchlisini topib, bizga kim yetkazib beradi? Albatta, bunday mas'uliyatli vazifani jurnalistlar bajaradi.

Jurnalistlar ijtimoiy hayotimizdagi axborotlarni to'plash, tahlil qilish va ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish bilan shug'ullanadi. Boshqacha aytganda, jurnalist ommaviy targ'ibot va tashviqot ishlari bilan mashg'ul bo'ladi.

Odamlarga turmushdagi yangiliklarni va boshqa turli axborotlarni yetkazib beruvchi kasb egalari qadim zamonlarda ham bo'lган. Tarixda ular jarchi yoki notiq deb atalgan. Ular odamlar gavjum joylarda, bozor yoki markaziy ko'chalarda yurib, qichqirganicha eng muhim yangiliklarni tarqatib yurishgan.

O'zbekistonda zamonaviy jurnalistika XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib paydo bo'ldi. Uning tarixi Toshkentda chiqarilgan "Turkiston viloyatining gazeti" rasmiy nashrlaridan boshlanadi. XX asrning boshlariga kelib ma'rifatli bobolarimiz – jadidlar tashabbusi bilan "Taraqqiy", "Sadoi Turkiston", "Samarkand", "Oyina" kabi milliy gazetalarimiz faoliyat ko'rsata boshladi. Shu tariqa, xalqimizni ma'rifatli, yurtimizni taraqqiy ettirishni oldiga maqsad qilgan ziylolar milliy jurnalistikamizga asos solishadi.

Jurnalistlar har doim hukumat va aholi o'rtasida ko'prik vazifasini o'tab kelgan. Ya'ni hukumatning qarorlari, qilinayotgan islohotlar, kutilayotgan natijalar haqida xalqqa jurnalistlar axborot berib turishadi.

O'zbekistonda jurnalistlarning emin-erkin faoliyat yuritishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ularning huquqlari qator qonunlar bilan himoya qilingan. O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida "Jurnalist axborot to'plash va tekshiruv o'tkazish huquqiga ega" (9-modda), "Jurnalistning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmati qonun bilan qo'riqlanadi" (10-modda) deya belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunlar ham jurnalistik faoliyatni himoya qiladi.





IJTIMOIY TARMOQLAR



Internet shiddat bilan rivojlangani sari uning yangi-yangi imkoniyatlari paydo bo'layapti. Axborot va ma'lumot almashish misli ko'rilmagan darajada qulaylashib, tezlashib borayapti. Hozir dunyoning bir burchida ro'y bergan voqeani bevosita kuzatishingiz, lahza o'tmay xabardor bo'lishingiz mumkin.

Hozir Facebook, Twitter, Youtube, Telegram, Instagram, TikTok kabi ijtimoiy tarmoqlar mashhur. Ularning bir necha millionlab foydalanuvchilari bor va bu ko'satkich tobora oshayapti. Ma'lumotlarga ko'ra, birgina Facebook tarmog'iga bir oyda 2,5 milliard foydalanuvchi kiradi. O'zbekistonda ancha mashhur bo'lgan Telegram tarmog'inинг esa, 500 milliondan ortiq faol foydalanuvchisi bor.



Ijtimoiy tarmoqlar internetda 1995 yillardan ommalasha boshlagan. Lekin haqiqiy mashhurlikka 2003–2004 yillarda erishgan. Bu davrda AQSHda LinkedIn, MySpace va Facebook ijtimoiy tarmoqlari ishga tushirilgan.



Bugun ijtimoiy tarmoqlar shunchaki xabarlashish, muloqot vositasigina emas. Ular ko'p hollarda ommaviy axborot vositalarining vazifasini ham bajaryapti, elektron tijorat maydoniga ham aylanib ulgurdi, ba'zida esa, reklama va xayriya aksiyalari uchun qulay vosita sifatida qo'llanilayapti.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanganda me'yorni bilish juda muhim. Ularga haddan ziyod vaqt sarflash turli jismoniy va ruhiy muammolarni keltirib chiqaradi. Mobil qaramlar va stress holati o'zaro bog'liqligi tadqiqotchilar, shifokorlar tomonidan bir necha bor ta'kidlangan.

Ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalardan ma'lumot olishda ham qonun talablariga bo'ysunish talab etiladi. Qonun bilan taqiqlangan axborotlarni tarqatuvchi saytlar, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish javobgarlikka sabab bo'ladi.



BLOGER

Ijtimoiy tarmoqlar rivojlanishi ortidan bloger tushunchasi ham ommalashib ketdi. Bloger – o‘z sayti yoki ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasi orqali fikr-mulohazalarini, munosabatlarini beruvchi, blog yurituvchi kishi.

Agar siz ham fikrlaringiz yoki ijodiy ishlaringizni internetdagi o‘z sahifaliringiz orqali omma e’tiboriga havola qilsangiz, blogerga aylanasiz.



Ilk blog jahon axborot tarmog‘i – internet asoschilaridan biri Timoti Berners-Lining sahifasi hisoblanadi. U internetdagi sahifasida 1992 yildan yangiliklar e’lon qila boshlagan. Bloglar 1966 yildan e’tiboran ommalashdi. 1999 yili Amerikaning Pyra Labs kompyuter kompaniyasi Blogger.com saytini ishga tushirdi. Ushbu sayt birinchi bepul blog platformasiga aylandi.

“Blog” atamasi inglizcha web log so‘zidan qisqartirib yasalgan bo‘lib, internet-kundalik, internet-qaydnoma, onlayn bitik kabi ma’nolarni anglatadi.

Bloglardan o'quvchi va obunachilar axborot olish, ko'ngilochar ma'lumotlar bilan tanishish, u yoki bu hodisaga ommaning munosabatini o'rGANISH, taniqli kishilarning hayoti va qarashlarini yaqindan bilish, ularga aloqadorlik hissini tuyish uchun foydalananadilar.

Bloglar mualliflar tarkibiga ko'ra, shaxsiy, guruhli (ko'pchilik yuritadigan) va umum uchun ochiq bo'lgan turlarga bo'linadi. Mazmun-mundarijasiga ko'ra esa, ma'lum bir mavzuga ixtisoslashgan va umumiy bo'lishi mumkin.

Oxirgi yillarda blog yuritish mamlakatimizda anchagina ommalashdi. Ijtimoiy tarmoqlarda bir necha o'n ming va hatto bir necha yuz ming kishilik obunachiga ega bo'lgan bloglar bor.

Blog yuritishda ham axborot tarqatish bilan bog'liq qonun-qoidalarga amal qilish talab etiladi.



**7-BOB.
SOG'LIQNI SAQLASH
VA SPORT**

YASHASH HUQUQI

Yashash huquqi – insonning eng asosiy, ajralmas, tabiiy va ijtimoiy huquqidir. U shaxsiy huquq va erkinliklar tarkibiga kiradi.

Biz bu huquqqa tug'ilganimizdayoq, ilk nafas olgan kezimizdayoq ega bo'lamiz va u butun hayotimiz davomida bizning ajralmas huquqimiz bo'lib qoladi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonunda yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqi ekani, bola hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat ekani va davlat sog'lom bolaning tug'ilishi va rivojlanishini ta'minlash uchun sharoit yaratishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyamizda esa “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir”, deb ko'rsatilgan.

Yashash huquqining mazmuni ko'p qirrali va turli davlatlarda turlicha talqin qilinadi. Masalan, jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilingan Avstraliya, Avstriya, Germaniya, Fransiya va boshqa bir qator mamlakatlarda birorta inson sodir etgan jinoyati qanday bo'lishidan qat'i nazar, hatto davlat tomonidan ham yashashdan mahrum etilishi mumkin emas. Qator mamlakatlar konstitutsiyalarida qonun yo'li bilan o'lim jazosi belgilanishi mumkin bo'lgan jinoyatlar doirasi va o'lim jazosi qo'llanishi mumkin bo'limgan shaxslar doirasi (masalan, ayollar va voyaga yetmaganlar) o'lim jazosini qo'llash xavfi tug'ilganda qo'shimcha protsessual kafolatlarni belgilash yo'li bilan aniqlashtiriladi.

2018 yil holatiga ko'ra, 106 mamlakatda o'lim jazosi bekor qilingan, 6 mamlakat esa, uni urush vaqtida sodir etilgan og'ir jinoyatlar uchungina saqlab qolgan. Bir necha davlatlar esa, o'lim jazosidan amalda foydalanmaydi. Ya'ni, ular oxirgi 10 yil ichida bu jazo turini qo'llamagan va ularga moratoriyl e'lon qilish bosqichida, ba'zilari esa, ana shunday moratoriyni rasman ma'lum qilgan.

Prezidentning 2005 yil 1 avgustda qabul qilingan farmoniga binoan, 2008 yil 1 yanvardan e'tiboran O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi bekor qilingan.

Boshqa kishining hayotiga suiqasd qilish, agar uning o'limini keltirib chiqarsa, o'limga sabab bo'lish yoki qotillik jinoyatini tashkil qiladi. Qasddan odam o'ldirish huquqqa xilof ravishda, qasddan boshqa kishini hayotidan mahrum etishdir. O'ldirish esa, huquqqa xilof ravishda ehtiyojsizlik bilan boshqa kishini hayotidan mahrum qilishdir.

TIBBIY XIZMAT

Xalqimizda “Salomatlik – tuman boylik” degan purhikmat maqollar bor. Darhaqiqat, salomatlik eng katta ne’matdir. Chunki odam sog’lom bo’lmasa, har qanday boylik unga tatimaydi. “Bosh omon bo’lsa, do’ppi topilar” deganlaridek, qachon odam sog’lom bo’lsa, yaxshi ishlaydi. Oldiga qo’ygan maqsadlarini amalga oshirish uchun tinim bilmay mehnat qiladi.



Biroq, odamlarning hayoti doim ham to’kis bo’lavermasligini anglashimiz lozim. Odamlar umri davomida turli kasalliklarga duchor bo’lishi, kutilmagan falokatlar oqibatida shikastlanishi yoki nogiron bo’lib qolishi ham mumkin. Shu sababli, fuqarolarning sog’lig’ini saqlash, ularga tibbiy xizmat ko’rsatish tizimlari qonunlar bilan tartibga solinadi.

Davlatning eng muhim vazifalaridan biri fuqarolariga g’amxo’rlik qilishdir. Jumladan, bemorlar ham davlatning himoyasidadir. Konstitutsiyamizning 40-moddasida “Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega” deb belgilangan.

Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar fuqarolarning sog'lig'ini saqlanishni ta'minlaydi. Davlat bermorlarning kamsitilishiga yo'l qo'ymaydi.

Har bir fuqaro bepul birlamchi tibbiy-sanitariya yordami olish huquqiga ega. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tibbiy xizmat ko'rsatishning asosiy, qulay va bepul turi bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- eng ko'p tarqalgan kasalliklar, shikastlanish, zaharlanish va shoshilinch yordam talab etiladigan boshqa holatlarni davolashni;
- sanitariya-gigiyenaga doir va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar, eng muhim kasalliklarning tibbiy profilaktikasini o'tkazishni;
- oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tadbirlarini, turar joylarda fuqarolarga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish bilan bog'liq boshqa chora-tadbirlar ko'rishni.

Bilishingiz kerakki, xususiy sog'liqni saqlash muassasalarida muolajalar shartnoma asosida, ya'ni pul evaziga amalga oshiriladi.



TEZ YORDAM

Hayotda biz istamagan va kutmagan holatlar ham yuz berishi mumkin. Jumladan, o'zimiz yoki yaqinlarimiz to'satdan kasallanishi yoki shoshilinch tibbiy yordamga ehtiyoj paydo bo'lishi mumkin. Bunday paytlarda shoshilinch va tez tibbiy yordam jonimizga ora kiradi. Tez tibbiy yordam inson hayoti va sog'lig'i uchun xavfli holatlar ro'y berganda kechasiyu kunduzi ko'rsatiladigan tibbiy yordam turi va tizimidir.

Ba'zan o'z vaqtida ko'rsatilmagan yordam jiddiy oqibatlarga va hatto inson o'limiga ham sabab bo'lishi mumkin. Bunday paytlarida har bir daqiqa, har bir soniya g'animat.

Ilk jihozlangan tez tibbiy yordam stansiyalari 1417 yili Niderlandiyada tashkil etilgan. Bunga mamlakatda kanal va anhorlarning ko'pligi, suvga cho'kkalar sonining kattaligi sabab bo'lgan.

Yurtimizda esa, ilk bor tez tibbiy yordam 1918 yili Toshkent shahrida tibbiy punkt sifatida tashkil etilgan. U 1926 yili mustaqil tez tibbiy yordam stansiyasiga, 1974 yili tez tibbiy yordam klinik kasalxonasi bilan birlashtirilib, bo'limga aylantirilgan. 1983 yili kasalxonadan ajratilib, mustaqil shahar tez va shoshilinch tibbiy yordam stansiyasi deb ataldi.

Tez tibbiy yordamning vazifasi hodisa yuz bergen joyda, uyda, bemorni kasalxonaga olib keta turib shoshilinch, shu jumladan, mutaxassis vrach tomonidan yordam ko'rsatish, zarur bo'lsa, bemorlarni kasalxonaga yetkazishni ta'minlashdan iborat.



O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, fuqarolar sog'liqni saqlash tizimining har qanday davolash-profilaktika muassasasida shosilinch tibbiy yordam olish huquqiga ega.

Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari fuqarolarga shosilinch tibbiy yordam ko'rsatishlari shart. Ular shosilinch tibbiy yordam ko'rsatishdan bo'yin tovlaganlik, shuningdek, fuqarolarning sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun qonunga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Tez tibbiy yordam sog'liqni saqlash tizimining maxsus tez tibbiy yordam xizmati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilagan tartibda ko'rsatiladi.

Fuqaroning hayoti xavf ostida bo'lgan taqdirda tibbiyot xodimlari uni davolash-profilaktika muassasasiga olib borish uchun har qanday transport turidan foydalanish huquqiga ega.

Shifokorlar, akusherlar, tibbiyot xodimlari bilan bir qatorda maxsus qoidalar bilan zimmalariga muayyan sharoitlarda kasallarga yordam ko'rsatish yuklatilgan shaxslar – ichki ishlar, yong'indan muhofaza qilish, qutqaruv xizmati xodimlari ham birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatishlari shart.



POLIKLINIKA

Kasallikning shunday turlari borki, odamlar ularga tez-tez chalinib turadilar. Masalan, shamollah, gripp, qorin og'rig'i, tish og'rig'i, yengil turdag'i jarohatlar va h.k. Shunday vaqtarda uyingizga eng yaqin bo'lgan poliklinikaga borishingiz mumkin.

Poliklinikaning shifoxonadan farqi shundaki, bu tibbiyot muassasasida fuqarolar qatnab davolanadi. Ya'ni, poliklinikada yotib davolanish imkoni yaratilmaydi. Agar bemorning qatnab davolanishga imkoni bo'lmasa, shifokor bemorning uyiga borib davolashi ham mumkin.

Poliklinika ko'proq kasallikni oldini olish, tashxis qo'yish, kasallikning yengil turlarini davolash, kasallik alomatlari ko'ringanda birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish yoki ixtisoslashgan kasalxonaga yo'llanma berish bilan shug'ullanadi.

O'zbekistonda kasalxona bilan birlashgan va mustaqil poliklinikalar mavjud bo'lib, har bir fuqaro bu joydagi tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

Har bir fuqaroning o'zi yashaydigan hududga biriktirilgan oilaviy poliklinikasi ham bo'lib, bu yerda terapevt, xirurg, nevrolog, revmatolog, ginekolog, LOR kabi eng kerakli mutaxassislar faoliyat yuritadi. Oilaviy poliklinikalarning tibbiy xizmatidan foydalanish mutlaqo bepuldir.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Ayniqsa, bolalar sportni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratiladi. Bu bilan ularga sportga bo'lgan muhabbatni singdirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish nazarda tutiladi. Zero, sport yosh avlodni jismoniy va ma'naviy komillikka yetaklaydi, bolalarni salbiy ta'sirlardan himoyalanishga va zararli odatlardan xalos bo'lishga da'vat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunida yurtimizdagi jismoniy tarbiya va sport masalalari huquqiy jihatdan tartibga solingan.


Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni alohida sanash mumkin:

- jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi;
- har kimning jismoniy tarbiya va sport bilan erkin shug'ullanishga bo'lgan huquqi ta'minlanadi;
- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat hamda jamoat boshqaruvi uyg'unlashtiriladi;

Yurtimizda bolalar va yoshlar o'rtasida doimiy o'tkazib kelinadigan Respublika musobaqalari mavjud. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari o'rtasida "Barkamol avlod", oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Universiada", muktab o'quvchilari orasida esa "Umid nihollari" sport musobaqalarini tashkil etib kelinadi.

OLIMPIADA O'YINLARI

Qadimgi Yunonistonning Olimpiya shahrida har 4 yilda bir marta o'tkazilgan musobaqalar tarixdan Olimpiada o'yinlari nomi bilan mashhur. Olimpiada o'yinlarining asl tarixi qariyb uch ming yilga borib taqalsa-da, zamonaviy formatdagi sport musobaqalari 1896-yildan boshlab o'tkazib kelinadi. Shu yildan Olimpiada o'yinlarini o'tkazish tartibi, qoidalari belgilab qo'yilgan. Sport musobaqaqasining tartib-qoidalalarini zamonaviy olimpiya harakati asoschisi, fransiyalik jamoat arbobi Pyer de Kuberten ishlab chiqqan. O'yinlar Xalqaro Olimpiada qo'mitasi tomonidan tashkil qilinadi. O'yinlarda musobaqalar sportning faqat olimpiya turlari bo'yicha o'tkaziladi. Olimpiya sport turi xartiyaga binoan aniqlanib, asosan sportning eng ommalashgan turlariga e'tibor qaratiladi. Yengil atletika, gimnastika, suzish, og'ir atletika, kurash, boks, qilichbozlik, eshkak eshish, velosiped sporti, futbol, basketbol ana shunday musobaqalardan. Olimpiada ramzi – ko'k, qora, qizil, sariq va yashil rangdagi bir-biriga tutashgan 5 halqa tasviri bo'lib, u olimpiada harakatiga birlashgan 5 ta qit'aning ramzidir.



O'zbekiston sportchilari Olimpiada o'yinlarida 1952-yildan buyon ishtirok etib keladi. 1996-yildan boshlab yurtimiz sportchilari mustaqil davlat vakillari sifatida Olimpiada o'yinlarida zafar qozonib kelmoqda.

O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi 1992-yil 21-yanvarda tashkil etilgan. U 1993-yilning sentyabr oyida Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 101-sessiyasida tasdiqlangan. Shundan keyingina o'zbek sportchilari mustaqil davlat nomidan musobaqalarda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritgan.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni 8-moddasiga ko'ra, O'zbekistondagi olimpiya harakati Xalqaro olimpiya harakatining bir qismi bo'lib, olimpiya g'oyalari va prinsiplarini ommalashtirish, O'zbekiston Respublikasi sportchilarining Olimpiya o'yinlarida qatnashishlari maqsadlarini ko'zlaydi.



8-BOB. MUDOFAA VA XAVFSIZLIK

QUROLLI KUCHLAR


Har bir davlat o‘z mustaqilligi, hududlari daxlsizligi va mamlakat aholisining tinch-osuda hayot kechirishi uchun harakat qiladi. Bu yo‘lda unga birinchi galda qurolli kuchlar yordam beradi.

Juda qadimdanoq qabila va birlashmalar qurolli qismlar, qo‘sishinlar tashkil etganlar. Harbiy jihatdan zaif qabilalarni kuchliroqlari bosib olishi, qabila a’zolarining moli va joniga tajovuz qilib, boylik va mulklarini talashi, yurtlarini xonavayron etishi mumkin bo‘lgan. Bu holat kuchli va jangovar askarlardan iborat lashkarga katta ehtiyoj tug‘dirgan.

Qurolli kuchlar zamonaviy tushunchada harbiy harakatlar olib borish hamda davlat xavfsizligini ta’minlash maqsadida davlat tomonidan ta’milanuvchi qurollangan kishilarning uyushgan birlashmasi; siyosiy hokimiyatning muhim tarmog‘ini anglatadi.

Vaqtlar o’tgani sari davlatlarning harbiy qudrati oshdi, qo‘sish son va sifat jihatidan yangilanib bordi, mamlakatni himoya qilish zarurati kuchaydi. Shu sababli XVIII asr oxirida Yevropa davlatlarida umumiy harbiy xizmat majburiyati joriy etildi. XIX asr oxirlariga kelib rivojlangan davlatlar qurolli kuchlari soni keskin ko‘paydi.

XX asrda fan va texnikaning eng yangi yutuqlaridan harbiy maqsadlarda foydalanish keng yo‘lga qo‘yildi. Yangicha qo‘sish turlari vujudga keldi. XXI asrda esa, uchuvchisiz qurilmalar, o‘ta tezkor va qit’alararo harakatlanuvchi yangi avlod harbiy raketa-lari va boshqa turdagи zamonaviy qurollar ishlab chiqilib, harbiy xavfsizlik sohasida tub burilish yasaldi.



Qurolli kuchlar turlariga quruqlikdagi qo'shinlar, strategik maqsaddagi raketa qo'shinlari, mamlakatni havo hujumidan mudofaa qilish qo'shinlari, harbiy-havo kuchlari, harbiy-dengiz floti kabilar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari – O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayotini himoya qilish, urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish va oldini olish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo'shilmalar va qismlardir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993 yil 29 dekabrda-gi O'zbekiston Respublikasining "Vatan himoyachilari kunini belgilash to'g'risida"gi Qonuniga binoan, 14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni deb e'lon qilingan.

2000 yil 3 fevral kuni O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi qabul qilingan.

Mudofaa va Qurolli Kuchlarga rahbarlikni O'zbekiston Prezidenti – Respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni amalga oshiradi. Urush sharoitida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri bir paytning o'zida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondonining o'rinnbosari hisoblanadi.

HARBIY XIZMAT

Insonning tug'ilib-o'sgan yurti Vatan deyiladi. Mana shu Vatanini asrash, ardoqlash, kezi kelganda himoya qila olish har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

Ayrimlar vatan himoyachilari deganda faqat erkaklarni tushunadi. Bu biroz noto'g'ri tasavvur. Aslida, vatanni himoya qilish har bir fuqaroning konstitutsiyaviy burchi sanaladi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 52-moddasida "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir" deb belgilab qo'yilgan.

18 yoshga to'lgan har bir yigit umumiylar harbiy majburiyatni o'tashi shart. Umumiylar harbiy majburiyat muddati bir yil. Konstitutsiyamizning 52-moddasida "Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar" deb qayd etilgan.

Yigitlar mакtabni yoki o'rta maxsus ta'lim muassasasini bitirgan vaqtдан Fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida ro'yxatga olinadilar. Bu jarayonda yigtlarning harbiy xizmatga qay darajada yaroqli ekanligini, salomatligi mutaxassislар tomonidan tekshiriladi. Ayrim hollarda fuqaroning sog'lig'i harbiy xizmatni o'tash uchun yaroqli emas deb topilsa, u umumiylar harbiy majburiyatdan ozod etiladi.



Quyidagi hollarda fuqaroning harbiy xizmatga chaqirilish muddati kechiktirilishi mumkin:

1) chaqiriluvchining ota-onasi mehnatga qobiliyatsiz bo'lib, ularni boqishi shart bo'lgan mehnatga qobiliyatli voyaga yetgan boshqa o'g'li bo'lmasa. Ota-onaning mehnatga qobiliyatsizligi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi;

2) chaqiriluvchining mehnatga qobiliyatli yolg'iz onasi yoki otasi bo'lib, ularning qaramog'ida o'n olti yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq farzandi bo'lgani holda mehnatga qobiliyatli voyaga yetgan boshqa o'g'li bo'lmasa;

3) chaqiruv kunida chaqiriluvchining tug'ishgan aka-ukalaridan biri muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan bo'lsa;

4) chaqiriluvchining onasiz tarbiyalanayotgan voyaga yetmagan bir farzandi bo'lsa;

5) chaqiriluvchining birinchi yoki ikkinchi guruh nogiron xotini va voyaga yetmagan ikki va undan ortiq farzandi bo'lsa.

Lekin yuqoridagi to'siqlar bartaraf etilganida fuqaro 27 yoshga to'lguniga qadar harbiy xizmatga chaqiriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shu kabi boshqa organlariga xizmatga kirish taqiqlanadi.



VATANGA QASAMYOD

Harbiy xizmatga chaqirilgan fuqarolar O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i oldida quyidagi mazmunda Vatanga qasamyod qabul qiladilar:

«Men, (familiyasi, ismi, otasining ismi), O'zbekiston Respublikasi Qurollı Kuchlari safiga kirar ekanman, davlatim timsoli bo'lmish muqaddas bayroqni o'pib, buyuk ajdodlarimning pok ruhlari oldida, vatanim oldidagi burchimni halol bajarishga bel bog'lab, vijdonim, or-nomus va sha>nimni o'rtaqa qo'yib:

O'zbekiston Respublikasiga, xalqimga va Prezidentimga bir umr sodiq bo'lishga, Vatanimning mustaqilligini, uning sarhadlarini, ona xalqimning tinchligi va osoyishtaligini, milliy manfaatlarini so'nggi nafasimgacha himoya qilishga, O'zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan har qanday tajovuz va g'arazli harakatlarga qarshi ayovsiz kurashishga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlari va umumharbiy nizomlarga qat'iy amal qilishga, davlatva harbiy sirlarni saqlashga, quruqlikda, suvda, havoda — har qanday sharoitda ham o'z burchimni vijdonan bajarishga, Har qanday mashaqqatli sinov va qiyinchiliklarda ham el-yurtimning yuksak ishonchini oqlashga tantanali ravishda qasamyod qilaman!».



HARBIY UNVONLAR

Kino yoki videoroliklarda harbiy xizmatchilar bir-birlariga unvonlari bilan murojaat qilganini ko'rgan bo'lsangiz kerak. Ular o'zaro murojaatda o'rtoq serjant, o'rtoq leytenant, o'rtoq kapitan, o'rtoq mayor, o'rtoq polkovnik kabi iboralardan foydalananadi. Harbiy unvon harbiy xizmatchilarning o'zaro munosabatlaridagi mavqelarini belgilab beradi. Baland unvon egasi mavqeliroq hisoblanadi.

Harbiy unvon – qurolli kuchlarning har bir harbiy xizmatchisi va zaxiradagi harbiy majburiyatli shaxsga ularning xizmat mavqeい, harbiy va maxsus tayyorgarligi, o'tagan xizmati muddati, qaysi qo'shin yoki xizmat turiga mansub ekaniga, shuningdek, ko'rsatgan xizmatlariga ko'ra beriladigan unvondir.

Qurolli Kuchlardagi harbiy unvonlar qo'shin unvonlari va kema tarkibidagi unvonlarga bo'linadi.

Qurolli Kuchlarda quyidagi harbiy unvonlar joriy etiladi:

Qo'shin unvonlari	Kema tarkibidagi unvonlar
I. Oddiy askarlar tarkibi	
oddiy askar	matros
II. Serjantlar tarkibi	
kichik serjant	starshina
III darajali serjant	III darajali starshina
II darajali serjant	II darajali starshina
I darajali serjant	I darajali starshina
katta serjant	bosh starshina

III. Ofitserlar tarkibi	
Kichik ofitserlar tarkibi	
leytenant	leytenant
katta leytenant	katta leytenant
kapitan	kapitan-leytenant
Katta ofitserlar tarkibi	
mayor	III rang kapitani
podpolkovnik	II rang kapitani
polkovnik	I rang kapitani
Generallar tarkibi	
general-mayor	
general-leytenant	
general-polkovnik	
armiya generali	

Qurolli Kuchlardagi oliy harbiy unvon armiya generali bo'lib, bu unvon (urush davrida) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoniga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziriga beriladi.

Yuridik yoki tibbiy yo'nalishdagi harbiy hisobdagagi ixtisoslikka ega bo'lgan ofitserlar tarkibidagi harbiy xizmatchi va harbiy xizmatga majburning harbiy unvoniga tegishli tarzda "adliya" yoki "tibbiy xizmat" so'zları qo'shiladi.

Rezervdagisi, zaxiradagi yoki iste'fodagi fuqarolarning harbiy unvoniga mos ravishda "rezervdagisi", "zaxiradagi" yoki "iste'fodagi" degan so'zlar qo'shiladi.

SHAXS XAVFSIZLIGI

Har bir fuqaro jamiyatda xavfsiz yashash huquqiga ega. Odamlarning xavfsiz yashashiga xalal berish, ularga jismoniy yoki ruhiy zug'um o'tkazish, hayotiga tajovuz qilish mumkin emas. Bunday hollarda qonun oldida javobgarlik belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-moddasida "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og 'ir jinoyatdir", deb qayd etilgan.

Huquqshunoslikda shaxsiy daxlsizlik degan tushuncha ham mavjud. Unga ko'ra, jinoyati qonun bilan isbot etilmagan shaxs aybdor sanalmaydi. Qonunbuzarlikda gumonlanayotgan shaxsni sudning qarorisiz belgilangan muddatdan ortiq ushlab turish mumkin emas. Sudning qarorisiz fuqaroni qamoqqa olish mumkin emas.

Konstitutsiyamizning 24-moddasida shaxsning asosiy huquqlaridan birisifatida insonning yashash huquqi qayd etilgan, ya'ni har bir inson uchun ajralmas huquq – yashash huquqidir. Boshqa kishining hayotiga suiqasd qilishi, agar uning o'limini keltirib chiqarsa, o'limga sabab bo'lish yoki qotillik jinoyatini tashkil qiladi. Qasddan odam o'ldirish huquqqa xilof ravishda, qasddan boshqa kishini hayotidan mahrum etishdir. Inson hayotiga tajovuz qilish eng og 'ir jinoyat, deb ta'riflanadi.

MULK HUQUQI

Mulk huquqining qay darajada ta'minlangani davlatda qonun-qoidalar qay darajada ishlayotganini ko'rsatuvchi, ishbilarmonlik va investitsiya muhitiga ta'sir ko'rsatuvchi omillaridan biridir.

Deylik, sizning noutbukingiz bor. Uni sizdan birov ixtiyorингизга qarshi tortib olishi mumkin emas. Mulkka egalik qilish huquqingizni davlat himoyalaydi.

Mulk bu – moddiy va ma'naviy ne'matlarga egalikdir. Yer va yer osti boyliklari, korxona, bino, inshootlar, mashina va uskunalar, tayyor mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar, san'at va adabiyot asarlari, ilmiy va texnikaviy ishlasmalar va boshqalar mulk bo'lishi mumkin. Mulk xususiy, jamoaviy va davlat mulki shaklida bo'lishi mumkin.

Xususiy mulk – bu mulkni o'zlashtirishning xususiy usuliga asoslangan shakli. Uning individual va korporativ xususiy mulk shakllari bor.

Jamoa mulki – jamoaga ixtiyoriy ravishda birlashgan kishilarning umumiyligi mulki bo'lib, bu mulkning egalari shu jamoada mehnat qilishi shart.

Davlat mulki – davlat ixtiyorida bo'lgan mulk va davlat hokimi-yati organlari tomonidan tasarruf etiladigan mulkdir.



Xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjalariiga muvofiq qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir.

Xususiy mulk bo'lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi.

Xususiy mulk daxlsiz va davlat himoyasidadir.

Davlat xususiy mulkning but saqlanishini ta'minlash va uning ko'paytirilishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratadi.

Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartib-dagina o'z mol-mulkidan mahrum etilishi mumkin.

Xususiy mulk huquqi muddatsizdir.

Davlat buzilgan xususiy mulk huquqining tiklanishini va uning sud orqali himoya qilinishini kafolatlaydi.

Mulkdorga yetkazilgan zararning o'rni uni yetkazgan shaxs tomonidan qonun hujjalariiga muvofiq to'la hajmda qoplanishi kerak.



INTELLEKTUAL MULK XAVFSIZLIGI

Mulkning shunday turlari borki, ular insonning ijodiy faoliyati davomida vujudga keladi. Masalan, bastakor yaratgan musiqa, rejissyor suratga olgan film, yozuvchining hikoya, qissa, romani, shoirning she'rlari, ixtirochi-muhandisning g'oyalari, ixtirolari va h.k. Ko'rinib turibdiki, intellektual mulk deganda ko'proq insonning aqliy faoliyati bilan yaratiladigan mulk turi tushuniladi. Bu atamaning o'zi ham lotinchia "intellect" so'zidan olingan bo'lib, o'zbekchada "aql" deganidir.

Intellektual mulk uning yaratuvchisiga, ya'ni muallifga tegishli bo'ladi. Mualliflik huquqiga oid masalalar, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunda o'z aksini topgan. Ammo muallif muayyan bitim tuzgan holda o'zi yaratgan intellektual mulk huquqini boshqa birovga berishimumkin. Masalan, bastakorqo'shiqchining buyurtmasiga ko'ra musiqa bastalab berishi va buning evaziga muayyan haq olishi mumkin.

Milliy va xalqaro uyushmalar hamda tashkilotlar intellektual mulk sohasidagi ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida 1967-yilda Stok-golm shahrida bo'lib o'tgan anjumanda Jahon intellektual mulk tashkiloti tuzilganligi haqida konvensiya qabul qilingan, 1970-yil 26-apreldan boshlab bu konvensiya kuchga kirgan.

Jahon intellektual mulk tashkiloti qoshida turli ixtisoslashgan ittifoqlar faol ish olib boradi.

9-BOB. HUQUQBUZARLIK VA JINOYAT

MA'MURIY HUQUQBUZARLIK

Huquqbazarlik deb jamiyatda o'rnatilgan qonunlarni, umuman, hamma uchun barobar bo'lган yashash qoidalariни buzish holatlariiga aytildi. Huquqbazarlik odamlarga qanchalar zarar keltirishi, jamiyat uchun xavflilik darajasiga qarab jinoyat, nojo'ya harakat, intizomni buzish kabi turlarga bo'linadi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, hamma huquqbazarliklar ham jinoyat sanalmaydi. Sodir etilgan huquqbazarlik odamlar, jamiyat uchun xavfli bo'lsa, jinoyat sanaladi. Ya'ni, qonunni buzgan holda, bir yoki bir nechta odamning hayoti, sog'lig'i va mulkiga jiddiy zarar keltirish jinoyat sanaladi. Aksar hollarda jinoyatlar qasddan qilinadi. Boshqa hollarda, nojo'ya harakat yoki intizomni buzish bilan qilingan huquqbazarliklar odamlarning hayoti, sog'lig'i va mulkiga jiddiy zarar keltirmasa hamda bu jamiyat uchun xavfli sanalmasa, bunday qonunni buzish holatlari ma'muriy huquqbazarlik deyiladi.

Masalan, bir shaxs o'zi ishlab turgan korxonaga mast holda keldi, deylik, bu intizomiy javobgarlikka olib keladi. Mast holda bir hamkasbini haqorat qildi – ma'muriy javobgarlik yuzaga keladi. Agar shu vaziyatda kasboshini haqorat qilib, unga qasddan jarohat yetkazsa, jinoyat sodir etgan hisoblanadi va bu jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Ma'muriy huquqbazarlik deganda qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'-risidagi ishlarni yuritishni istisno etuvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish yuritilmaydi.

Qonunga ko'ra, ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan paytda 16 yoshga to'lgan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Ma'muriy huquqbazarlik jinoyatdan ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab farqlanadi. Ma'muriy huquqbazarlik sudlanganlik holatini keltirib chiqarmaydi.

Jinoyat faqat sud organlari tomonidan, ma'muriy huquqbazarlik esa, sud organlaridan tashqari bir qancha vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan ham ko'rib chiqiladi.

MA'MURIY JAVOBGARLIK

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Jazoning bunday turi esa, ma'muriy jazo deb ataladi. Fuqarolar 16 yoshdan ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ma'muriy jazodan maqsad huquqbuzaarni intizomga chaqirish, qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, bunday ishni boshqa takrorlamaslikni tushuntirishdan iborat.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun quyidagi ma'muriy jazo choralari qo'llanilishi mumkin:

- 1) jarima;
- 2) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish;
- 3) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyni musodara qilish;
- 4) muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqididan, ov qilish huquqididan) mahrum etish;
- 5) ma'muriy qamoqqa olish;
- 6) chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish.

Ma'muriy qamoqqa olish muddati 3 kundan 15 kungacha bo'lib, ayrim og'ir huquqbuzarlik holatlarida 30 kun etib belgilanishi mumkin.



JINOYAT

Odamlarga, tinchlik va xavfsizlikka, ekologiyaga, jamoat tartibiga qarshi qilingan xavfli, taqiqlangan va aybli qilmish jinoyat deb ataladi.

Jinoyat huquqbazarlikning og‘ir ko‘rinishidir. Jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat sanaladi. Qilmish jinoyat ekanini aniqlash uchun qilmishning ijtimoiy xavfliligi; aybning mavjudligi; jazoga sazovorligi belgilari inobatga olinadi. Har qanday jinoiy qilmishda mazkur belgilarning barchasi birdaniga mavjud bo‘lishi shart, ulardan biri mavjud bo‘lmasa, qilmishni jinoyat emas, deb hisoblashga asos topiladi.

Kimda-kim jinoyat qilsa, u, albatta, qonun oldida javob beradi. Hatto bolalar ham yoshini inobatga olgan holda jinoyati uchun javobgar bo‘ladi va jazolanadi.

Jinoyat qilgan odam jinoyatchi deb ataladi va jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ammo odamni jinoyatchi deb atashdan oldin uning jinoyat qilgani sud jarayonida aniq isbot qilinishi kerak.



Jinoiy masalalar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ko'rildi.

Qonunchiligidizda jinoyatlar xavflilik darajasiga ko'ra ijtimoiy xavfi katta bo'Imagan, uncha og'ir bo'Imagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi. Lekin bu yengilroq jinoyatlarni qilsa bo'laveradi, degani emas.



Ijtimoiy xavfi katta bo'Imagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'Imagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyoitsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'Imagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Uncha og'ir bo'Imagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'Imagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyoitsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'Imagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI

Bu atama qulog'ingizga chalingan bo'lsa kerak. U haqida ommaviy axborot vositalarida tez-tez eslatib turiladi. Chunki aybsizlik prezumpsiyasiga amal qilmaslik holatlari bot-bot ko'zga tashlanib qoladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Bunda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas. Ana shu prinsip aybsizlik prezumpsiyasini deyiladi.

Demak, sud hukmi qonuniy kuchga kirmasdan turib shaxsni oldindan "poraxo'r", "firibgar", "o'g'ri", "zo'ravon" yoki boshqa salbiy iboralar bilan sifatlash, uni aybdor shaxs sifatida talqin qilish xatodir. Deylik, sud hukmidan oldin shu kabi sifatlar bilan ta'riflangan odamning aybi sudda isbotlanmadni va oqlandi. Oqlanish uning aybsizligini e'tirof etish demakdir. Biroq suddan oldin unga nisbatan qo'llangan salbiy iboralar uning obro'-e'tibori va shaxsiyatiga jiddiy zarar yetkazadi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak.

Aybsizlik prezumpsiysi umumhuquqiy norma bo'lib, unga amal qilish jinoyat protsessining barcha bosqichlarida ustuvor hisoblanadi.

Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab berilishi kerak.

FIRIBGARLIK

Birovni aldab unga tegishli bo'lgan pulni yoki qimmatli buyumni olib qo'yish firibgarlik deb ataladi. Bunday jinoyatni sodir etadigan odamlar esa firibgar deyiladi.

Masalan, siz sifatli soat sotib olish uchun yetarlicha pul yig'dingiz. Soatni sotib olish uchun do'konga borganingizda sotuvchi sizga bir soatni ko'rsatib, uni ko'p maqtaydi. Soatning mashhur savdo belgisini ham ko'rsatadi. Siz sotuvchiga ishonib qimmatbaho soatni xarid qilasiz. Lekin bir necha kun o'tib soat buziladi. Soatsozga murojaat qilganingizda u sizga soatning aslida qalbaki ekanini aytadi. Bu holatda sotuvchi aldov yo'li bilan sizga tegishli pullarni o'zlashtirgan, ya'ni firibgarlik qilgan hisoblanadi.

Firibgarlik hozirda eng ko'p tarqalgan jinoyat turlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, axborot-texnologiyalari rivojlangani sari firibgarlikning turlari ham ortib bormoqda. Firibgarlarning aksari-yati internet saytlarida, ijtimoiy tarmoqlarda odamlarni aldash yo'li bilan ularga tegishli bo'lgan mulkni o'zlashtirishmoqda. Bunda aldov yo'li bilan plastik kartalardagi pulni yechib olish, internet do'konidan buyurtma qilingan mahsulotni yetkazib bermaslik, hayr-ehson uchun pul olib, so'ng bu pulni boshqa maqsadda ishlatish holatlari ko'p kuzatilmoqda.

Firibgarlik jinoyati uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasiga ko'ra katta miqdorda jarima, mol-mulkini musodara qilish yoki ozodlikdan mahrum qilish kabi jazo choralar qo'llaniladi.

BEZORILIK

Jamiyatda hamma birday amal qilishi shart bo'lgan yurish-turish qoidalari bor. Masalan, birovning mulkiga boshqa birov zarar yetkazishga haqli emas. Hech kim boshqa bir shaxsga qo'pollik qilishi, uni urishi va do'pposlashi mumkin emas. Lekin bu qoidalarni mensimaydigan, birovning mulkiga yoki tanasiga qasddan shikast yetkazadigan, janjalkash, bezori kimsalar ham yo'q emas. Unutmang, ular uchun qonuniy jazo muqarrar.

Agar biror shaxs bezorilik bilan o'zga shaxsning mulki yoki badaniga ancha miqdorda zarar keltirsa, bu hol jinoyat sifatida qayd etilishi, bezorilik qilgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi ham mumkin.

Bezorilik jinoyati uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 277-moddasiga ko'ra katta miqdorda jarima yoki ozodlikdan mahrum qilish jazo choralari qo'llanilishi mumkin.



TUHMAT

Tuhmat boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni bila turib tarqatishdir. Odam ko'rolmaslik, hasad, g'azab, kin yoki gina sababli birovga tuhmat qilishi mumkin. Bu yomon illat ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Deylik, bir o'quvchi sinfdoshini maktab foyesidagi guldon tuvakni sindirganlikda aybladi. Aslida sinfdoshi bunday ishni qilmagan. U shu orqali sinfdoshini sharmanda qilishni istadi. Keyinchalik surishtiruvlar, videokamera yozuvlari buning yolg'on ekanini ko'rsatdi. Endi ana shu uydirmani, ya'ni tuhmatni tarqatgan o'quvchi javobgarlikka sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga ko'ra, tuhmat bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan oltmis baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Shunday harakatlar ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnda yoxud ommaviy axborot vositalari orqali tuhmat qilish og'irlashtiruvchi holat siyatida shaxsni to'g'ridan to'g'ri jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ko'ra, fuqaro o'zining sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar yuzasidan, agar bunday ma'lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to'g'ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo'li bilan raddiya talab qilishga haqli.

Manfaatdor shaxslarning talabiga ko'ra fuqaroning sha'ni va qadr-qimmatini uning vafotidan keyin ham himoya qilishga yo'l qo'yiladi.

Agar fuqaroning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar ommaviy-axborot vositalarida tarqatilgan bo'lsa, ayni shu ommaviy-axborot vositalarida raddiya berilishi kerak.

Mabodo, bunday ma'lumotlar tashkilotdan olingan hujjatda uchrasa, bunday hujjat almashtirilishi yoki chaqirib olinishi kerak.

VOYAGA YETMAGANLARNING JAVOBGARLIGI

18 yoshga to'limagan shaxs voyaga yetmagan hisoblana-di. Ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan paytda o'n olti yoshga to'lgan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. Voyaga yetmagan shaxs ma'muriy huquqbazarlik turlarining og'ir shakllari bilan qonunbuzarlikka yo'l qo'ygan taqdirda, u umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Boshqa holatlarda ja-zoni belgilashda fuqaroning yoshi inobatga olinadi.

Qonunchilikda voyaga yetmagan shaxs jinoyat sodir qilgan taqdirda uning javobgarlik masalalari yoshga xos turli omillarni hisobga olgan hol-da ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoy-atlar uchun ham muayyan jazo tur-lari belgilangan. Bular: a) jarima; b) majburiy jamoat ishlari v) axloq tu-zatish ishlari; g) ozodlikni cheklash; d) ozodlikdan mahrum qilish jazo-laridan iborat. Voyaga yetmagan-larga nisbatan jazoning boshqa tur-lari va qo'shimcha jazolar tayinlanishi mumkin emas. Voyaga yetmaganlar uchun jazo miqdori va muddatlari ancha qisqartirilgan.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan belgilanadigan jarima eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda tayinlanadi. Majburiy jamoat ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan oltmisht soatdan ikki yuz qirq soatgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi. Axloq tuzatish ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan o'z ish joyida o'tash, aybdor hech qayerda ishlamasa, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o'zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o'tash tariqasida bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanadi. Ozodlikni cheklash voyaga yetmagan mahkulmlarga nisbatan asosiy jazo chorasi sifatida olti oydan

ikki yilgacha muddatga tayinlanadi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi olti oydan o'n yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin. Voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo'Imagan jinoyat sodir etgan, ehtiyyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan yoxud qasddan uncha og'ir bo'Imagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi.

JARIMA

Shaxs, jamiyat va davlat uchun xafililik darajasi past bo'lgan ma'muriy huquqbazarliklarga yengil jazo turlari qo'llanadi. Lekin shu yengil jazo ham shaxsni tartibga chaqirish, uni bu harakatni qayta sodir etmaslikka undashga xizmat qiladi. Masalan, yo'l harakati qoidalarini buzgan kishi jarima to'laydi. Ortiqcha moddiy xarajat zarar bilan barobar. Odam o'zini zarardan himoyalashga intiladi va tabiiyki, yo'l harakati qoidalariga amal qilish va jarima to'lamaslik payida bo'ladi.

Jarima ma'muriy jazo turlaridan biridir. Bunda ma'muriy huquqbazarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undiriladi.

Jarimaning miqdori ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan vaqtdagi, davom etayotgan ma'muriy huquqbazarlik uchun esa bu huquqbazarlik aniqlangan vaqtdagi belgilab qo'yilgan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Fuqarolarga solinadigan jarimanining eng kam miqdori bazaviy hisoblash miqdorining ellikdan bir qismidan, mansabdor shaxslarga esa – o'ndan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak.

Fuqaro va xizmatchilarga solinadigan jarimanining eng ko'p miqdori bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan, mansabdor shaxslarga esa – o'n baravaridan oshmasligi kerak. Ba'zi huquqbazarliklar uchun bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin.

Mahalliy davlat hokimiyyati organlarining qarorlari bilan belgilanadigan jarimanining eng ko'p miqdori fuqarolarga – bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan, mansabdor shaxslarga esa – besh baravaridan oshmasligi kerak.

MUNDARIJA

So'zboshi	3
1-BOB. Davlat boshqaruvi	5
Qonun nima?.....	6
Davlat hokimiyati	8
Prezident	9
Oliy Majlis	10
Deputat	12
Senator	13
Vazirlar mahkamasi	14
Hokim	15
Mahalla oqsoqoli	16
Sud	17
Prokuror	18
Ichki ishlar xodimi	18
Saylov	19
Respublika	21
Viloyat	22
Konstitutsiya	23
Davlat tili	24
O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i	26
O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi	27
O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi	28
Poytaxt	29
Shahar	30
Tuman	32
Qishloq	33
Ovul	34
Mahalla	35
Birlashgan Millatlar Tashkiloti.....	36
Unicef.....	38
Bola huquqlari	39
Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya	41
Bola huquqlarining kafolatlari	43
Bolalar ombudsmani	44

2-BOB. FUQAROLIKKA OID MASALALAR	45
Fuqaro	46
Pasport	48
Tug'ilganlik haqida guvohnoma	50
Mulk huquqi	51
Meros va vorislik	53
Vasiylik va homiylik	55
Mualliflik huquqi	56
Bitimlar	58
Yo'l harakati qoidalari	59
Xaridor	61
Korrupsiya	62
Soliqlar	64
Fuqaroning muomala layoqati	65
Voyaga yetmaganlar	66
Emansipatsiya	67
3-BOB.OILA VA NIKOH	68
Oila	69
Nikoh	70
Erkak va ayolning teng huquqliligi	71
Ism	72
Qarindoshlik	73
Bolalarning oiladagi xususiy mulki	74
Voyaga yetmaganlarning javobgarligi	75
4-BOB.TA'LIM	77
Ta'lim olish huquqi	78
Ta'lim turlari	79
Maktabgacha ta'lim	80
Umumiy o'rta ta'lim	82
O'rta maxsus ta'lim	84
Professional ta'lim	85
Oliy ta'lim	87
Prezident maktabi	89
Abituriyent	90

5-BOB. TABIAT	91
Tabiat	92
Tabiat muhofazasi	94
Yerosti boyliklari	96
Suv va suv havzalari	98
Uy hayvonlari	100
Qizil kitob	102
6-BOB. AXBOROT VA SO'Z ERKINLIGI	104
Axborot	105
So'z erkinligi	107
Ommaviy axborot vositalari	108
Jurnalist	110
Ijtimoiy tarmoqlar	112
Bloger	114
7-BOB. SOG'LIQNI SAQLASH VA SPORT	116
Yashash huquqi	117
Tibbiy xizmat	119
Tez yordam	121
Poliklinika	123
Jismoniy tarbiya va sport	124
Olimpiada o'yinlari	125
8-BOB. MUDOFAA VA XAVFSIZLIK	127
Qurolli kuchlar	128
Harbiy xizmat	130
Vatanga qasamyod	132
Harbiy unvonlar	133
Shaxs xavfsizligi	135
Mulk huquqi	136
Intellektual mulk xavfsizligi	138

9-BOB. HUQUQBUZARLIK VA JINOYAT	139
Ma'muriy huquqbuzarlik	140
Ma'muriy javobgarlik	142
Jinoyat	143
Aybsizlik prezumpsiyasi	145
Firibgarlik	146
Bezorilik	147
Tuhmat.....	148
Voyaga yetmaganlarning javobgarligi	150
Jarima	152

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

BOLALAR YURIDIK
ENSIKLOPEDIYASI

Tuzuvchilar:
Sherzod Bahronov, Sa'dullo Quronov

Muharrir: G.Ortiqxo'jayeva
Dizayner: X.Xoliyorov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi.
Nashr. lit. № AI 032, 29.10.2019
Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.
Telefonlar: 71-233-28-18, 71-280-55-47
Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz
e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Bosishga ruxsat etildi 08.06.2021-y.
Qog'oz bichimi 70x100 1/16
"Century Gothic" garniturası
Offset uslubida chop etildi. Bosma tabog'i 10
Nashriyot hisob tabog'i 8,2. Adadi 2 000 nusxa.
...-buyurtma. Narxi shartnomada asosida.

**"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Navoiy-30.**